BIR BO‘LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

www.mv-vatanparvar.uz

VATANPARVAR

MILLIY ARMIYA GAZETASI

Gazeta 1992-yilning 24-iyu[illegible] 25-oktabr, №43 (3105)



JASORATNI YURAGIMGA JO QILIB

4-5 JADIDLARNING HARBIY SOHAGA OID QARASHLARI

8 ASOSIY VAZIFA – QUROLLI KUCHLAR REZERVINI SHAKLLANTIRISH

10 HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA TAFAKKUR

18-19 JAHON CHEMPIONATI: SHIDDATLI, SHIJOATLI VA SHARAFLI

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA’NAVIY-MA’RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

BIZ HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

XALQARO KUZATUVCHILAR FAOLIYATI



Saylovlarda kuzatuv instituti, jumladan xalqaro kuzatuv bir tomondan, saylovlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish jarayonida amaldagi milliy qonunchilik va xalqaro standartlarga muvofiq, saylovlar ochiqligi va shaffofligini ta’minlasa, ikkinchi tomondan, kuzatuv davomida saylov jarayonida yo‘l qo‘yiladigan kamchiliklar, shu jumladan saylov qonunchiligi buzilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Hukumatlararo va xalqaro nohukumat tashkilotlar hamda assotsiatsiyalar saylovlar xalqaro kuzatuvini amalga oshiradi.

O‘zbekiston a’zo bo‘lgan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti *(YXHT)*, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi ijroiya qo‘mitasi, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti va boshqa tashkilotlar tomonidan xalqaro kuzatuvni tashkil etish to‘g‘risida tegishli qoidalar qabul qilingan. Ushbu qoidalar BMT tomonidan 2005-yil 27-oktabrda e’lon qilingan “Saylovlarni xalqaro kuzatish prinsiplari to‘g‘risidagi Deklaratsiya” va unga ilova qilingan “Saylovlarda xalqaro kuzatuvchilarning axloq kodeksi” asosida tayyorlangan.

Mamlakatimizda saylovlar xalqaro kuzatuvi milliy qonun hujjatlari va xalqaro standartlarga muvofiq tashkil etiladi. Markaziy saylov komissiyasining 2019-yil 19-sentabrdagi 938-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi saylovlarida xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardan qatnashadigan kuzatuvchilar to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan. Mazkur nizom O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 8- va 33-moddasi, shuningdek saylovlarni tashkil etish va o‘tkazish borasidagi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi saylovlarida xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardan kuzatuvchilar faoliyati tartibini belgilaydi.

O‘zbekistondagi saylovlarda xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar vakillari xorijiy *(xalqaro)* kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. Saylov kampaniyasi boshlangani e’lon qilinganidan so‘ng Markaziy saylov komissiyasi xorijiy davlatlar saylov organlari va xalqaro tashkilotlarga Tashqi ishlar vazirligi orqali taklifnoma yuboradi. Tashqi ishlar vazirligi o‘z tashabbusiga ko‘ra yoki davlat hokimiyati organlari, vazirliklar, idoralar, ilmiy-tadqiqot institutlari hamda boshqa tashkilot va muassasalar takliflariga ko‘ra, saylovlarga xorijiy *(xalqaro)* kuzatuvchilarni taklif etadi.

Xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar tegishli hujjatlarni ovoz berish kunidan kamida o‘n kun oldin taqdim etishi lozim. Tashqi ishlar vazirligi tegishli xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar kuzatuvchilarining hujjatlarini ilova qilgan holda, Markaziy saylov komissiyasiga taqdimnoma kiritadi. Markaziy saylov komissiyasi besh kunlik muddatda xorijiy *(xalqaro)* kuzatuvchilarni akkreditatsiya qilish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Akkreditatsiya qilingan xorijiy *(xalqaro)* kuzatuvchilarning ro‘yxati Markaziy saylov komissiyasining rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

Markaziy saylov komissiyasi akkreditatsiya qilingan xorijiy *(xalqaro)* kuzatuvchiga mandat beradi. Xorijiy *(xalqaro)* kuzatuvchilarning vakolat muddati ularga mandat berilgan kundan boshlanadi va saylov yakunlari rasman e’lon qilingan kuni tugaydi. Xorijiy *(xalqaro)* kuzatuvchining mandati uning maqomini tasdiqlovchi hujjatdir. Mandat xorijiy *(xalqaro)* kuzatuvchi saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish davrida o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun asos hisoblanadi. Markaziy saylov komissiyasi tomonidan takroriy ovoz berish yoki takroriy saylov o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda xorijiy *(xalqaro)* kuzatuvchilar mandati tegishli muddatga uzaytiriladi.

Ta’kidlash kerakki, mamlakatimizda xorijiy *(xalqaro)* kuzatuvchilarning ishtiroki kengayib bormoqda.

Xorijiy *(xalqaro)* kuzatuvchilar quyidagi huquqlarga ega:

– saylov komissiyalarining majlislarida hozir bo‘lish;

– nomzodlar ko‘rsatishga bag‘ishlangan yig‘ilishlarda, nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvlarida ishtirok etish;

– saylov uchastkasida hozir bo‘lish, tayyorgarlik ishlarining borishini, yashirin ovoz berish kabinalarining yoki xonalarining joylashtirilishini va saylov qutilarining muhrlanishini, fuqarolarning ro‘yxatga olinishini, saylov byulletenlarining ularga berilishini kuzatish;

– saylov kuni ovoz berish jarayonini kuzatish;

– muddatidan oldin ovoz berishni o‘tkazish vaqti va joyi haqida xabardor bo‘lish hamda ushbu jarayonni kuzatish;

– saylovchining turgan joyida uning ruxsati bilan ovoz berishi jarayonini kuzatish;

– ovozlar sanab chiqilayotganda va saylov komissiyasining bayonnomasi tuzilayotganda hozir bo‘lish;

– saylov natijalari to‘g‘risidagi hujjatlarning tegishli saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlangan ko‘chirma nusxalarini so‘rash va olish;

– kuzatuv olib borish davomida o‘zi yollagan tarjimon hamrohligida bo‘lish;

– saylov jarayoni va ovoz berishning yashirinligini buzmasdan foto, video, audio yozuvlarni amalga oshirish *(qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylari, harbiy qismlar, davolash muassasalari bundan mustasno)*;

– kuzatuv natijalari bo‘yicha ommaviy axborot vositalari vakillariga murojaat qilish;

– saylovoldi tashviqoti belgilari bo‘lmagan, familiyasi, ismi va otasining ismi, o‘zi vakillik qilayotgan tashkilotning nomi ko‘rsatilgan ko‘krak nishonlari taqish;

– okrug saylov komissiyasi tomonidan uchastka saylov komissiyalaridan ovozlarni sanab chiqish natijalari to‘g‘risidagi bayonnomalarni qabul qilib olish hamda okrug bo‘yicha saylov natijalarini aniqlash jarayonida hozir bo‘lish;

– harbiy qismlarda, qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan saylov uchastkalariga borishi haqida kamida uch kun oldin uchastka saylov komissiyasini xabardor qilishi;

– agar saylov uchastkasida saylovga oid qonunchilik va xalqaro normalar talablari buzilishiga yo‘l qo‘yilgan deb hisoblash uchun asoslar bo‘lsa, o‘z kuzatuvlari to‘g‘risida ushbu uchastka saylov komissiyasi a’zolariga ularning ishiga aralashmagan holda ma’lum qilish, shuningdek yuqori turuvchi saylov komissiyalariga xabar berish;

– saylov to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari haqida hamda saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uning o‘tkazilishi bo‘yicha o‘z fikrini bayon qilish.

Xorijiy *(xalqaro)* kuzatuvchilar qonunchilik hujjatlariga muvofiq, boshqa huquqlardan ham foydalanadi.

Xorijiy *(xalqaro)* kuzatuvchilarning majburiyatlari:

– o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga, jumladan O‘zbekistonda bo‘lish qoidalariga, saylovni tashkil etish va o‘tkazish borasidagi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga amal qilish;

– saylov ustidan xalqaro kuzatuvni amalga oshirish borasidagi o‘z vazifalarini xolislik, siyosiy betaraflik prinsiplariga amal qilgan holda bajarish, saylov komissiyalari, davlat organlari, mansabdor shaxslar, saylov jarayoni ishtirokchilariga nisbatan qanday bo‘lmasin, biror bir tarzda afzallik bildirishdan voz kechish;

– barcha darajadagi saylov komissiyalariga, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga hamda boshqa tashkilotlarga kirganida Markaziy saylov komissiyasi tomonidan berilgan mandatni shaxsini tasdiqlovchi hujjat bilan birgalikda ko‘rsatish;

– o‘z xulosalarini o‘tkazilgan kuzatuv va haqiqiy materiallar bilan asoslantirish.

Xorijiy *(xalqaro)* kuzatuvchilarga quyidagilar man etiladi:

– saylovchi saylov byulleteniga o‘z belgisini qo‘yayotgan paytda yashirin ovoz berish kabinasida yoki xonasida bo‘lish;

– fuqarolarga ta’sir o‘tkazish, biror bir tashviqot materialini yoki adabiyotini tarqatish;

– saylovchilardan ular qanday ovoz berganligini surishtirish yoki saylovchilarga saylov byulleteniga belgi qo‘yishda biror bir tarzda yordam ko‘rsatish;

– saylov komissiyasining faoliyatiga, shu jumladan saylov qutilarini muhrlash, ularni ochish, ovozlarni sanab chiqish jarayoniga aralashish;

– biror bir partiya yoki nomzodga tegishli ramziy tusdagi belgilarni taqib yoki olib yurish;

– saylov kuni va ovoz berish boshlanishidan bir kun oldin jamoatchilik fikri so‘rovlari natijalarini, saylov natijalari prognozlarini, o‘tkazilayotgan saylov bilan bog‘liq boshqa tadqiqotlarni e’lon qilish.

Xorijiy *(xalqaro)* kuzatuvchilarning saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lmagan tadbirlarda ishtirok etishi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan oldindan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Podpolkovnik
Farhod ABDURAZAKOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
sikl boshlig‘i.
Podpolkovnik Ilhom XOLOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
kafedra o‘qituvchisi

XXI asr komandirining qiyofasi



> Bo‘linma, harbiy qism va qo‘shilmaning jangovar shayligini doimiy ravishda oshirib borish, jangchilar tomonidan eng yangi qurol-yarog‘ hamda jangovar texnikaning muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishi, ularni zamonaviy umumqo‘shin jangini olib borishga o‘rgatish, shuningdek shaxsiy tarkibni sifat bo‘yicha o‘zgartirish masalalarining hal etilishi ofitserlardan, eng avvalo, yakkabosh komandirlardan yuksak ma’naviy-ma’rifiy, tashkiliy va kasbiy sifatlarni talab etadi.

Zamonaviy komandir o‘zida chuqur layoqat *(kompetentlik)*, shaxsiy intizom va tashabbuskorlik, ishga ijodiy yondashuvni mujassam etgan bo‘lishi, ijtimoiy-ma’naviy hamda tarbiyaviy jihatlarni hisobga olishi, insonlarga, ularning ehtiyojlari hamda talablariga ziyraklik bilan munosabatda bo‘lishi, xizmatda va kundalik faoliyatda namuna bo‘lishi kerak.

Urush davrida komandirning muhim vazifasi turg‘un, uzluksiz, tezkor *(operativ)* va yashirin boshqaruvni ta’minlash hisoblanadi.

Bo‘linma, harbiy qism, qo‘shilma va birlashma komandiri bo‘ysunuvchilarni boshqarishda quyidagi talab va tamoyillarga tayanishini aniq tasavvur qilishi kerak:

yakkaboshchilik;

boshqaruvning markazlashuvi. Bunda bo‘ysunuvchilarga topshirilgan vazifalarni bajarish usullarini belgilashda tashabbusni o‘zlariga qo‘yib berish lozim;

vaziyatni tahlil qilishni bilish, to‘g‘ri xulosalar chiqarish va hodisalar rivojini ko‘ra bilish;

shaxsiy tarkibni tanish, uning axloqiy va jangovar sifatlarini bilish;

bo‘ysunuvchi komandirlarga tayana olishni bilish;

ishda yuqori darajadagi tashkilotchilik, tezkorlik hamda ijodiy yondashuv;

qabul qilingan qaror va rejalarni hayotga tatbiq etishda qat’iylik va talabchanlik;

qabul qilinayotgan qarorlar uchun shaxsiy javobgarlik *(mas’uliyat);*

bo‘ysunuvchi bo‘linmalar va topshirilgan vazifalarni bajarish natijalarini mohirona qo‘llash.

Jangovar vaziyatlarda boshqaruv bo‘ysunuvchi tuzilmalarning jangovar imkoniyatlaridan samarali foydalanishni hamda vaziyatning har qanday sharoitlarida topshirilgan vazifalarni belgilangan muddatlarda muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlashi kerak. Komandir tinchlik davrida boshqaruv faoliyatidagi asosiy sa’y-harakatlarni bo‘linmalarni ehtimoliy tajovuzni qaytarish uchun tayyorlash, ularning yuksak darajadagi jangovar shayligini ta’minlash, bo‘ysunuvchilarning yuqori intizomi, tartib va uyushqoqligini ushlab turishga yo‘naltiradi.

Yuqori darajadagi texnik jihozlanish, harbiy mahorat va sinmas ma’naviy-ruhiy kuch O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar potensialini tashkil etadi. Komandir bo‘linma, qo‘shilma yoki birlashmasi jangovar salohiyatining yuqori darajada ushlab turilishini harbiy tuzilma oldiga qo‘yilgan barcha vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlaydi. Bu uchun komandirga faoliyatning barcha sohalarida: tashkilotchilik, o‘quv-jangovar, ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy, ma’muriy-xo‘jalik va boshqa sohalarda keng vakolatlar berilgan.

Komandirning bo‘linma, qo‘shilma yoki birlashmani boshqarish bo‘yicha eng asosiy amal harbiy tuzilma oldida turgan vazifalarni bajarish uchun maqsadga muvofiq va har tomonlama asoslangan qaror qabul qilishdir. Qaror jangovar vaziyat va tinchlik davrida ham boshqaruvning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Qaror qo‘yilgan vazifani eng kam kuch, vosita va vaqt sarflash uchun qachon, qayerda, qanday va kim tomonidan, nima qilish kerak, degan savollarga javob beradi.

Qaror qabul qilish bu murakkab ijodiy jarayon bo‘lib, unda komandir tadqiqotning turli usullaridan, shu jumladan mantiqiy-matematik usullaridan ham foydalanib, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilishiga to‘g‘ri keladi. Bu ishni faqat komandirning o‘zi bajara olmaydi. Unda o‘rinbosarlar, shtab, boshqarma va bo‘linmalar ofitserlari faol ishtirok etadi. Komandir xodimlarni tanlashi, bo‘ysunuvchi ofitserlarning ishchanlik sifatlarini bilishi hamda ularga rahbarlik qilishi shart. Shu o‘rinda qayd etish kerakki, buyuk ajdodimiz Amir Temur qo‘mondon va sarkardalarni o‘rganish va tanlashga katta e’tibor qaratgan. **“Tajribamdan sinab bildimki, jangning sir-asrorini, g‘anim askarlarini sindirish yo‘lini bilgan, urush qiziganda o‘zini yo‘qotmasdan, qo‘l-oyog‘i bo‘shashmasdan, lashkar favjlarini jangga boshlay oladigan, agar qo‘shin safiga raxna tushsa, uni tezda tuzata oladigan kishigina amirlik va hukmronlikka loyiq hisoblanadi”**.

Komandirning zimmasiga qaror qabul qilish bilan birga uning bajarilishi uchun ham pirovardda unga ishonib topshirilgan odamlar taqdiri uchun shaxsiy javobgarlik yuklangan. Qaror qabul qilish jarayoni, ayniqsa jangga qaror qabul qilish, inson ishtirok etayotgan boshqa har qanday jarayon kabi, obyektiv va subyektiv jihatlarga ega. Obyektiv jihatlariga – harbiy qismga qo‘yilgan vazifa, shuningdek vaziyatning unsurlari kiradi. Subyekt sifatida esa – muayyan bilimlarga, tafakkur etish qobiliyatlariga, fe’l-atvorining o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lgan komandir namoyon bo‘ladi. Jarayonning obyektiv jihati uning ongida aks etadi.

Qaror *(faqatgina vaziyatning unsurlari va boshqa komandirning)* irodasiga, hukmiga bog‘liq bo‘lmagan omillar u tomonidan asliyatga imkon qadar yaqin qabul qilingan holdagina maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu sabab komandir to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun qat’iyatlik, mustaqillik, yuqori talabchanlik, jasurlik va sobitqadamlik, kasbiy mahorat kabi sifatlarga ega bo‘lishi, chuqur harbiy-nazariy va harbiy pedagogik bilimlarni o‘zlashtirgan bo‘lishi, murakkab va tez o‘zgaruvchan vaziyatda kerakli yo‘nalish va choralarni topa oladigan bo‘lishi kerak.

Faqat sezgirlik, tabiiy iqtidor asosida qaror qabul qilish mumkin bo‘lgan vaqtlar o‘tib ketdi. Hozirda harbiy san’atning negizini ilm, harbiy voqea-hodisalarga ilmiy yondashuv, aniq hisoblar, asoslangan xulosalar tashkil etyapti. Shu ma’noda harbiy ilm-fanni, xususan harbiy kadrlarni tayyorlash borasidagi ilm-fanni rivojlantirish zaruratidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan harbiy nizolar tajribasi va jangovar harakatlarning zamonaviy amaliyotini, shuningdek milliy harbiy san’at tarixini chuqur o‘rganish asnosida qo‘shinlarni tayyorlash usul va uslublarini yanada takomillashtirish vazifasi belgilab berildi.

To‘g‘ri qaror komandirning vaziyatni o‘rganish bo‘yicha qunt bilan amalga oshirilgan aqliy mehnati, harbiy ishni mukammal bilishi, harbiy ilm-fan qonuniyatlarini amalda qo‘llay olishi natijasidir. Biroq sezgirlik hamda vaziyat rivojini ko‘ra olish qobiliyati ham qaror qabul qilish jarayoni tarkibiy qismlaridan istisno qilinmaydi.

Komandir nafaqat o‘zi maqsadga muvofiq qaror qabul qilishga qodir bo‘lishi, balki bo‘ysunuvchi bo‘linma, harbiy qism komandirlarini ham asoslangan qarorlar qabul qilishning to‘g‘ri uslubiyatiga, qisqa, lo‘nda va aniq vazifalar qo‘yishga, hamkorlikni puxta tashkillashtirishga, qo‘yilgan vazifalarni bajarishning eng maqbul usullarini tanlay olishga o‘rgatishi zarur.

Shuning uchun boshqaruvning barcha bo‘g‘inlaridagi komandirlarga talablarning eng muhimlaridan biri ular tomonidan bo‘linmalarni uyushtirish va boshqarish bo‘yicha uslubiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish talabidir. Barcha darajadagi komandirlarning metodik mahorat darajasini oshirish zamonaviy sharoitlarda birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Komandir boshqaruv bo‘yicha hamda tashkiliy vazifalarni bajarishga majmuaviy yondashuv talablarini bajarish uchun o‘z ishini shunday yo‘lga qo‘yishi kerakki, tinchlik davri sharoitlarida ham, jangovar sharoitlarda ham o‘zining ko‘p qirrali majburiyatlari hajmi to‘lig‘icha qamrab olinishi, bunda bo‘ysunuvchi harbiy tuzilmalarni boshqarishning eng samarali usullari qo‘llanishi ta’minlansin.

Lavozim bo‘yicha majburiyatlarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishi ofitserning tayyorgarlik darajasiga, shuningdek uning tashkilotchilik qobiliyatiga, u tomonidan shaxsiy tarkibni o‘qitish va tarbiyalashning ilg‘or usullari qo‘llay olinishi, uning yuqori talabchanligi, qat’iyligi va shaxsiy mehnatsevarligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq.

Polkovnik M. IBRAGIMOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
kafedra boshlig‘i, dotsent



JADIDLARNING HARBIY SOHAGA OID QARASHLARI

> XIX asr oxirida dunyoda mustamlakachilik siyosati avj olib, bu holat Turkistonni ham chetlab o‘tmadi. Rossiya imperiyasi tomonidan 1865-1885-yillar oralig‘ida Turkiston mustamlakaga aylantirildi. Natijada mustamlakachi hukumat o‘z manfaatlaridan kelib chiqib, Turkistonning yerusti va osti boyliklariga egalik qila boshladi. Bundan tashqari, asrlar davomida shakllanib kelgan ijtimoiy, iqtisodiy sohalar ham mustamlakachilar tomonidan nazoratga olinib, o‘ziga xizmat qiluvchilarnigina qoldirib, boshqalarini yo‘q qildi. Shu jarayonda yurtimizda ilm-fan, ta’lim kabi sohalar rivojlanishdan to‘xtab qoldi. Bu sohalarni rivojlantirish va aholida milliy mustaqillik va Vatanga muhabbat g‘oyalarini shakllantirish uchun jadidlar maydonga chiqa boshladi. Jadidchilik harakati vakillari aynan, mana shu mustamlakachilik zulmidan millatni ma’rifat yo‘li orqali qutqarish uchun intilgan bo‘lsa-da, ammo milliy qo‘shin va armiyaga ega bo‘lmagunimizcha, mustaqillikka erishib bo‘lmasligini yaxshi tushunib yetgan.

Bu xususda jadidchilik harakatining yorqin vakillari o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan. Dastlab Turkiston jadidlarining otasi sifatida tan olingan Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zi tomonidan tashkil qilingan “Oyina” jurnalida askarlik to‘g‘risida fikr yuritgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z zamonasida bo‘layotgan voqealar, ya’ni **Birinchi jahon urushida qatnashayotgan mamlakatlar haqida atroflicha to‘xtalib o‘tib, askarlik va Vatan mudofaasi haqida o‘z fikrlarini bergan**. Maqolada aytilishicha, askarlik va Vatan muhofazasi faqat yigitlarning askarlik xizmatidan iborat emasligini, qo‘shinga moddiy jihatdan ko‘maklashish ham yuksak vatanparvarlik namunasi ekanini aytadi. Behbudiy o‘z fikriga qo‘shimcha qilib, bir hududning xalqi va askarlari turli dinlarga e’tiqod qilsa-da, Vatan uchun kurashishi kerakligini ta’kidlaydi va Rossiya qo‘shinida musulmonlar hamda Usmoniylar qo‘shinida xristianlar borligini misol keltirgan.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, Rossiya imperiyasi davrida Turkiston xalqidan askarlikka olinmagan. Chunki turkistonliklarni qurollantirishdan qo‘rqib, mustaqillikka da’vo qilishlari mumkin deb hisoblagan. Bundan ko‘rinadiki, xalqimiz har doim mustaqillikka intilib yashagan.

Abdulla Qodiriy ham bu masalaga befarq qaramagan. Shuning uchun qo‘shinga, boshqalar tarafindan huquqingning toptalmog‘i, chetlarga mahkum, mazlum bo‘lmaslik, chet millatlarga o‘z tovushingni eshitdirub, eshitmoqqa majbur etuvg‘a shubha yo‘qkim, qo‘lingdagi qurolingg‘a, askariy kuchingg‘a qarab bo‘lur, deb ta’rif bergan. Bu bilan milliy qo‘shinning nechog‘li muhim va kerakligini ta’kidlagandek. Qo‘shinlarning kerakligi haqida fikrini davom ettirar ekan, Yevropa mamlakatlarini misol qilib keltirib, ularning taraqqiyoti va mustaqilligi qurol kuchiga tayangani va shuning yordamida Sharq xalqlarini qaram qilgani haqida yozadi. Sharq xalqlarining bunday ahvolga tushishini esa madaniy jihatdan rivojlanishdan orqada qolganini aytib o‘tgan bo‘lsa-da, o‘z fikriga qarshi chiqib, qo‘shni Afg‘onistonni misol keltirib, shunday degan, afg‘on xalqi hozirda va bundan ellik-oltmish yil ilgarida ham madaniyatda biz turkistonlilardan ortiq bo‘lmay yurar edi. Lekin boshqa madaniy millatlarning taxt hokimiyatiga o‘tkani yo‘qdir. Bunga sabab sifatida afg‘onlarning o‘z milliy qo‘shini borligini keltirgan. **Shuning uchun ham har bir mamlakat o‘z qo‘shiniga ega bo‘lishi kerakligini ta’kidlab shunday degan**: mamlakat idorasi askarsiz mumkin emas. Idora o‘z qo‘limizga o‘tkach, tabiiy, Vatanimizning dushmandan muhofazasi o‘z ustimizga tushajak. Buning uchun o‘z askarimiz bo‘lurg‘a kerak. Tabiiydirki, mamlakat idorasi bizning qo‘lda bo‘lib askarlikni boshqalar qilmayajak. Bu mumkin ham emas. Ya’ni bu bilan Abdulla Qodiriy aytmoqchiki, agar yurtda boshqa xalqning askari bo‘lsa, o‘sha yurtning mustaqilligi ham yo‘q.

Askarlik xususida Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev ham o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan. Birinchi jahon urushiga baho berar ekan, har qaysi millatni hushyorlikka chaqiradi. Shuningdek, u mamlakat uchun o‘zining tuprog‘ini saqlamak kabi muhim va muqaddas bir vazifa yo‘qdur. Chunki nufus va aholining rafoh va saodati yolg‘iz Vatanning salomatligiga bog‘laydur, deb aytib o‘tgan. Vatanning qadrini esa shunday baholaydi: “Vatansiz qolmak esa shul yo‘lda qurbon bo‘lmakdan ham og‘ir bir ishdir”. Vatanni himoya qilish haqida esa: “Bu bizim eng muhim vazifamiz, buni musohala qilmak, ulug‘ bir ayb qusur bo‘lsa kerak”, deb o‘z fikrini yakunlaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning eng yaxshi shogirdlaridan biri Hoji Muin ham Vatan himoyasi va askarlik haqida o‘z fikr-mulohazalarini yozib o‘tgan. U “Oyina” jurnali va “Samarqand” gazetalarida ishlab yurgan paytlari bu mavzuga bir necha bor qo‘l urgan. Jumladan, yurt muhofazasini tashkil qilish uchun kishilar ongida yurtga muhabbat tuyg‘ularini singdirishni faqatgina ta’lim va tarbiya bilan amalga oshirish mumkinligi haqida: “Bizlarning zamonaga muvofiq, ya’ni zamoncha ehtiyojimizga yarayturgon maktab, madrasa, dorulsanog‘alarimiz ila zamoniy ilm va fanlarni bilaturgon ulamo, ag‘niyo, tujjorlarimiz va hunarmandlarimiz yo‘q”, deb

yozgan. Ta’lim va tarbiya bo‘lmas ekan, yurtda askarlik haqida ham o‘ylash muammoli masala ekanini anglagan. Lekin shunday bo‘lsa-da, askarlarni hayotiy zaruriyat sifatida bilib, xalqning oldin borishi, yurtning tinchlanmog‘i va kuchli bo‘lmog‘i maorif, askarlik, iqtisod va dehqonchilik ishlarining tuzuk bir-biriga qo‘yilishi bilan bo‘ladurkim, maaltaassuf, bu to‘g‘rilarda hanuz xalq uchun foydali va ko‘zga ko‘rinurlik ishlar qiling‘on emas. ...Askarlik jihatidan holimiz undan ham yomondir. Holbuki, yurtni saqlamoq va xalqning tinchligini tayin etmak uchun askar kerakdir, degan fikrlarni beradi.

Mazkur davrda dunyoda askarlari qudratli mustamlakachi davlatlar haqida so‘z yuritib, shunday deydi: “Hozirgi kunda dunyoni buzub inson qonini ariqlardek oqizib turg‘on askar bo‘lg‘onidek, ba’zi bir falokatni tinchgina soqlab, o‘zgalarg‘a oyoq osti bo‘lmasliqg‘a sabab bo‘lub turg‘on ham askarlik kuchidir. Zotan, askarlik va askar tuzmakdin maqsad yurt va fuqaroni ajnabiylarning tajovuz va taloshindan muhofaza etub, intizom doirasinda tinchgina yashamak bo‘lsa-da, lekin xasis va tamagir hukmdorlar, bir yoqdan, yolg‘uz o‘z taxt va tojlarini saqlamoq, ikkinchi yoqdan, hukumatlarin kengayturub, ulug‘ podsho bo‘lmoq uchun askarlarini tinch va gunohsiz xalqlar ustig‘a yuborib dunyoni qong‘a boturub kelurlar”.

Hoji Muin yana bir maqolasida “Bu dunyo hayot muborizasi maydoni bo‘lg‘onidan, bir kuchlik nimarsa kuchsizini ezar, yutar. Bu qonuni tabiat har bir jonsiz va jonlik narsalar haqida umumiy va joriy bo‘lub kelmakdadur”, degan fikrni bildirib, har qanday kuchli qo‘shinga ega mamlakat kuchsiziga xavf tug‘dirishi mumkinligini ogohlantiradi.

Hoji Muin: **“Hozirgi vazifamizg‘a qarag‘anda bizga, eng avval, askar kerakdir. Chunki hozirgi doxiliy urush va inqilob, xorijiy dushmanlarning tajovuzidan ortiq bizga qarshi xatarli bir holg‘a aylanmaqdadurki, bu urushdan Vatan va hurriyatni qutqarib olmoq uchun askariy zo‘r bir quvvatg‘a molik bo‘lmog‘imiz mutlaqo lozimdir”**, deydi. Shu o‘rinda Hoji Muin askarlik masalasi negizida xalqqa ozodlikka chiqishni targ‘ib qilgan, birlashishga chorlab: “Dunyoda zolim ostinda nomussiz yashamakdan huquq va hurriyat yo‘linda nomus bilan o‘lmak ming marta yaxshiroqdir. Ey Turkiston xalqi! Oyoqg‘a tur! Dushmanlaringni bos! Yurtingni saqla! Ey turkistonli turk o‘g‘li! Yarog‘ingni ol! Yovingni ot! Hurriyatingni saqla!” deb bong uradi. Keyingi maqolasida esa: “Askarsiz millat jonsiz gavda hukmidadir. O‘zining yerlik xalqidan askari bo‘lmagan bir yurt qo‘riqchisiz bir istehkom kabidir. Askarlik bir millatning hayot-mamot masalasini hal qilish uchun zo‘r rollar o‘ynaydurg‘on



bir kuchdir. Har bir yengish va yengilishning boisi askardir”, deb uqtirgan.

Hoji Muin “Zarafshon” gazetasining 1923-yil 21-iyun sonida bosilgan “Askarlik to‘g‘risida” maqolasida yuqoridagi fikrlarini rivojlantirib, askarlikning qudrat belgisi ekanini tarixiy dalillar bilan asoslar ekan: “Nikolayni taxtdan tushirgan – askar, sho‘rolar hukumatini bu kungacha muhofaza qilib kelgan ham askar bo‘ladi. Turkiston turklari ham bir vaqt urushqoqliqda mumtoz va mashhur edilar. Faqat bu so‘ngg‘i asrlarda o‘zlarining askariy kuchlarini Ovrupa jahongirlariga qarshi tashlamay, o‘zaro urushg‘a sarf etdilar. Oxiri ularning yurtimizni istilo qilishlarig‘a sabab bo‘ldilar. Shuning uchun bundagi xalqda bora-bora askarlik ruhi so‘nib ketdi”, deydi. 1918-yili boshlangan harbiy xizmatga olish ishlari to‘g‘ri tashkil qilinmay, yoshlarning majburiy ravishda askarlikka olinishi xalqning noroziligiga sabab bo‘lganini, askarlarning armiyadan ommaviy qochib ketish holatlari yuzaga kelganini “Xalqning ahvoli ruhiyasi bilan hisoblashmaganimiz uchun bu to‘g‘rida zo‘r xato qildik. O‘shal vaqtda faqat ixtiyoriy suratda askar olg‘onimizda, hozirgacha o‘n minglarcha muntazam askarga ega bo‘lur edik”, deya ochiqladi.

Hoji Muin 1923-yilda hukumatda yana askarlikka olish masalasi kun tartibiga qo‘yilganini aytib, ilgarigi xatolarni takrorlamaslikka chaqirar ekan: “Ana bukun yana yerlik xalqdan askar olish masalasi qo‘zg‘atilub turadir. O‘rtoq Troskiy ham o‘zining maktubida “Yerliklardan sekin-sekin askar olish kerak” mazmunida bir-ikki so‘z yozib o‘tadir. Shundan ham ma’lum bo‘ladirkim, bu kunlarda yana hukumat Turkiston xalqidan askar olishni tasvib va maslahat ko‘rgan. Lekin bu daf’a qaysi ravishda, qanday sharoit bilan askar olinadur? Bu ham bilgulik emas. Shoyad bu to‘g‘rida hukumatning yuqori doiralarida kengash va muzokaralar bo‘lib turg‘ondir. Har holda bu daf’a avvalgi xatolar takror voqe bo‘lmas, deb o‘ylaymiz”, deya fikrini tugallaydi.

Shu o‘rinda u askarlikka olish bo‘yicha quyidagi takliflarni beradi: “Harbiy xizmatga olish tartibli va kuchli tashviqotdan so‘ng majburiy emas, ixtiyoriy suratda bo‘lishi lozim, askarlik xizmatining muddatini qisqartirish kerak, harbiy xizmat bilan bog‘liq qonun va qoidalar yengillashtirilishi shart, yerlik xalqdan zobitlar yetishtirish uchun Turkistonning har bir shahrida askariy kurs va maktablar ochish kerak, askarlarning maishatlarini yaxshi ta’min etish va ba’zi urf-odatlarga mudoxala qilmaslik va o‘zlarini Turkistondan boshqa davlatga yubormaslik kabi qoida va yon berishlar e’lon qilish lozim”. Hoji Muin hukumat shu tavsiyalarni inobatga olsa, “Askarlikka olish muvaffaqiyatli chiqishi, shuning bilan barobar har bir ko‘ngilli askarga o‘z yaqinlaridan ikki kishining kafil bo‘lishi yoki shunga o‘xshash boshqa bir tadbir shart qilinsa, kelgusida ul askarning qochishlig‘i va yo hukumatga qarshi xiyonat qilmaslig‘i uchun bir amniyat hosil bo‘lur edi”, deb uqtiradi. Bu fikrlar oradan yuz yil o‘tganiga qaramay, hamon o‘ta muhim ahamiyatga molikdir.

G‘ulom Zafariy ham o‘z maqolalarida askarlik haqida yozib, Turkiston muxtoriyatini esga oladi. U “Biz turkistonli turk bolalari muxtoriyat e’lon etdik. Endi muxtoriyatimiz barqaror o‘lsun, desak, bizga quvvat lozim”, deb muxtoriyat askarlarini yanada kuchaytirish haqida fikr bildiradi. Vatanni himoya qilishda hech qanday shaxfiy, diniy, mintaqaviy manfaatlar bo‘lmasligi lozim. Buni hisobga olgan holda, G‘ulom Zafariy bir-birimiz-la yomon harakatlarda bo‘lmasdan, dushmanlarimiz-la olishub, nom nishon olaylik, iftixor etaylik, sharafiyot o‘laylik, deb aytib o‘tgan. Kuchli qo‘shinni qanday tuzish mumkinligi haqida ham o‘z fikrini bildirib, “Bu kun rohatimizni tark etub, uxlamay faqat bunlari tushunoylik, zavq va safoga tolmoylik, to‘y-tamoshalarga mo‘l, mo‘l pullari xarj etmoy, iqtisodga rioya etub, ortdirgonimizi iona etaylik, uyimizdagi kam kichik uy asboblarini ortdirmoqg‘a harakat etmoy, tutimizni ortdirmoqg‘a harakat etaylik, ipak, qumosh va boshqa narsalarda iqtisod etaylik, sandiqlarni, xaltalarni, yuklarni



FIGURE 7.3 First issue of *Ayina* (southern Central Asia).

to‘ldirmoqg‘a g‘ayrat etmay, quvvatimizni to‘ldirmoqg‘a g‘ayrat etaylik. Qimmatli narsalarga, ya’ni olmoska, javharka, zumradka, marjonka, yoqutka va kumush asboblarka oltunlarimizni berib-da, sandiqlarda hibs etsok, bularning na davlatga, na millatga, na Vatanga, na askarga foydasi bo‘lmos, sandiqlarda shundog‘cha qolur”, degan edi.

Bizning askarlarimiz boshqa mamlakat askarlaridan kam bo‘lmasligi kerak, degan g‘oyani surgan. Bu haqda “Bu kun bizni askarimiz na qadar ko‘p bo‘lsa, ul qadar quvvatli haybatli bo‘lurmiz. Dushmanlar yerindan qamaldomizlar, u quvvat biz dushmanlara ko‘kragimizi kerib, qarormiz hamda orzu etkan masalalar to‘psiz, to‘fangsiz, silohsiz, masrufsiz hosil o‘lur. Oning uchun doimo to‘pimiz, to‘fangimiz askarimiz mavjud bo‘lunmoq iqtizo etar”, degan edi. Bu fikrlar Turkiston muxtoriyati tashkil qilinganda aytilgan bo‘lib, mazkur hukumat a’zolari o‘zini himoya qilarlik darajada qo‘shin yarata olmadi. Natijada bolsheviklar bilan kurashda yengildi va istiqlolchilik harakati boshlanib ketdi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Turkiston jadidlari yoshlarni harbiy xizmatga jalb qilish, milliy qo‘shin tuzishning huquqiy asoslarini yaratish borasida yetarli ilm va tajribaga ega bo‘lgan. Ular askarlik Vatan uchun buyuk xizmat ekanini e’tirof etgan holda, yoshlarni harbiy xizmatga jalb etishni xalqning orzu-istaklari bilan uyg‘un holda olib borishni muhim deb bilgan. Bu ishni xalq bilan bo‘lishish maqsadida “Oyina”, “Ishchilar dunyosi” jurnallari va “Sadoyi Turkiston”, “Zarafshon”, “Samarqand”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Ishtirokiyun” kabi gazetalarda katta va kichik maqolalar yozib borgan. Shu yo‘l orqali xalqni birlashtirish va mustaqillikka erishish g‘oyalarini ilgari surgan.

Dalerjon MIRZAYEV,
O‘z RFA Tarix instituti
tayanch doktoranti

An’anaga muvofiq, ayni kunlarda respublikamizning turli hududlarida “Jasorat maktabi” harbiy-o‘quv yig‘inining navbatdagi mavsumi qizg‘in davom etmoqda. Yuz nafar surxondaryolik yoshning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga bevosita mas’ul bo‘lgan idora va tashkilotlar vakillari hamkorligida tashkil etilgan mazkur maktab jasoratli, matonatli, shijoatli yoshlarni yuzaga chiqardi.

Hayotga yangicha qarashlar











Surxondaryo viloyatining shahar va tumanlaridan kelgan yig‘in qatnashchilari Yoshlar markazida harbiy orkestr sadolari ostida kutib olindi. So‘ng yigitlar avtobuslarda Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi “Termiz” umumqo‘shin dala poligonida joylashgan harbiy qismga yetib kelishdi va ularning o‘n kunlik harbiycha hayot tarzi boshlandi.

Bolaligidan harbiy bo‘lish istagi bilan ulg‘aygan yoshlar “Jasorat maktabi”da orzulari ushalishidan shod, hayajon va quvonch ila yurt posbonlari hayotiga qiziqib qarashar, sobit qadam-la, komandirga harbiycha salom bergan askarga havas ko‘zi bilan boqishardi. Uch qatordan saflangan yigitlar endi fuqarolik hayotidan biroz chekingan, harbiy hayotga kirib borishayotgan edi. Termiz harbiy gospitali malakali shifokorlari tomonidan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgandan so‘ng harbiy liboslarni kiygan yigitlar saf maydoniga tizilishdi. Yig‘inning ochilish marosimida Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug qo‘mondonligi, viloyat hokimligi, faxriylar hamda mutasaddi tashkilot rahbarlari so‘zga chiqib, yig‘in ishtirokchilarning yorqin kelajagida muhim debocha bo‘lib qolishini aytib, ularga omad va zafarlar tilashdi.

Yig‘inga bu gal 100 nafar yosh jalb qilindi. Viloyat hududida muqim ish joyiga ega bo‘lmagan 18-30 yosh atrofidagi yoshlar bilan belgilangan dasturga asosan, 10 kun davomida tonggi badantarbiya, seminarlar, jangovar va saf tayyorgarligi, sport musobaqalari va yana qator o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Shu bilan birgalikda “Ishga marhamat” monomarkazining xodimlari yoshlar uchun kasbga yo‘naltiruvchi amaliy mashg‘ulotlarni ham tashkil etgan.

Yoshlarni tarbiyalash hamda fuqarolik pozitsiyasini, ijtimoiy adaptatsiyasini kuchaytirish, kasbga o‘rgatish, jismoniy tarbiya hamda sportga keng jalb etish kabi ezgu maqsadlarni ko‘zlagan yig‘in surxondaryolik yigitlarda katta taassurot qoldirdi.

O‘n kunlik yig‘in doirasida “Rahbar va yoshlar” uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Yoshlar o‘zlarining qiziqishidan kelib chiqib, savollar bilan yuzlandi hamda kerakli tavsiya va tushunchalarni oldi. Ularning tadbirkorlik qilish, yer ajratish, kasb-hunar o‘rganish borasidagi murojaatlari yechimi yuzasidan mas’ullarga zarur topshiriqlar berildi, aksariyati joyida hal etildi.

Uchrashuv gulxan atrofidagi madaniy tadbir bilan davom etdi. Unda yig‘in davomida o‘tkazilgan turli sport va bilimlar bellashuvlarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan ishtirokchilar qo‘mondonlik tomonidan taqdirlandi. Shuningdek, o‘zining ijobiy xulqi bilan namuna ko‘rsatgan bir guruh yoshlarni profilaktik hisobdan chiqarish bo‘yicha tavsiyanomalar tarqatildi.

Bir so‘z bilan aytganda, turli muhitda, turfa sharoitlarda ulg‘aygan barcha yoshni ushbu yig‘in vatanparvarlik hissini mustahkamlashdek yagona maqsad ostida birlashtirdi.

Endilikda yigitlarning belgilagan hayot yo‘li oydin ranglardagi sahifalarga bitilishi muqarrar. O‘n kun shunchaki o‘tmadi, maqsadli rejalar kurtak yozdi. Eng muhimi, yig‘inda qatnashgan yuz nafar yoshning har biri hayotga yangicha qarashlar bilan qadam tashlagani e’tiborga molik. Bu ularning taassurotlarida aks etgani yaqqol ko‘rinib turibdi.

– “Jasorat maktabi” harbiy-o‘quv yig‘inining ishtirokchisi bo‘lishdan avvalgi hayot tarzim umuman boshqacha edi, – deydi Sariosiyo tumanidan kelgan Abror Fayzullayev. – O‘n kun davomida hayotga bo‘lgan qarashlarim butunlay o‘zgardi. Vaqtning qadriga yetishning qanchalik muhimligini anglab yetdim. Harbiycha tartib-intizomga o‘rgandim. Eng muhimi – Vatanimga, ota-onamga, do‘stlarimga sadoqat hissi ortdi. O‘zbekiston Respublikasiga sadoqat bilan xizmat qilaman, degan jumlaning mohiyati va mas’uliyati endi bir lahzaga bo‘lsa-da, yodimdan chiqmaydigan bo‘ldi. Yurtimiz tinchligi yo‘lida sharafli burchini ado etayotgan harbiy akalarimizdan, komandirlarimizdan o‘rgangan saboqlarimiz barchamizning hayot yo‘limizda qimmatli saboq bo‘lib qolishiga ishonch bildiraman.

Uzun tumanidan kelgan Shahzod Sheraliyev harbiy-o‘quv yig‘inidan tengdoshi Abror kabi o‘z oldiga ulkan maqsadlarni qo‘ygan holda qaytayotganini ta’kidladi.

– O‘n kunlik yig‘inga kelishdan oldin ishsiz edim. Tashkilotchilar bu yerda men va boshqa tengqurlarimga elektrpayvandchisi, duradgorlik, sartaroshlik va shunga o‘xshash kasblarni o‘rganish imkoniyatini yaratib berganidan mamnunman. O‘ylaymanki, “Jasorat maktabi”da boshlangan ezgu niyatlarimizni kelajakda ham amalga oshirish o‘z qo‘limizda. Yaratib berilayotgan bunday imkoniyatlarning samarasini ko‘rsatishga ishonch bildira olaman. Chunki kelajakda oliy harbiy ta’lim muassasasida saboq olib, Vatan himoyachisi degan sharafli kasbni egallamoqchiman.

III darajali serjant
Akbar AHMEDOV
Termiz garnizoni

Dolzarb mavzu

VATANPARVARLIK tarbiyasi



> Kishilik jamiyatida ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, adolatlilik, jo‘mardlik, ma’naviy bag‘rikenglik, madaniy yuksalish, insonparvarlik va vatanparvarlik mavzusini tushunish barcha davr gumanitar fan vakillari va boshqa soha mutaxassislari uchun o‘rganilishi dolzarb ijtimoiy voqelik va ilmiy tadqiqot obyekti bo‘lib kelgan.

Ta’kidlash lozimki, kishilik jamiyatining tarixiy rivojlanishi o‘ziga xos obyektiv va subyektiv omillarga bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy, siyosiy, harbiy, diniy, madaniy va ma’naviy munosabatlar o‘z davrining ijtimoiy ong darajasi mahsuli bo‘lib, vatanparvarlik va jo‘mardlik, tug‘ilib o‘sgan yurtga sadoqat, adolat tushunchasi har bir davrda shaxs va jamiyat qarashlarida turlicha namoyon bo‘lgan hamda yangicha ma’no-mazmunni aks ettirgan holda, davr ruhini o‘zida singdirib, ajdodlardan avlodlarga tosh va g‘orlarda, hayvonlar terisiga chizilgan rasmlar, hunarmandchilik asarlari, og‘zaki va yozma manbalar asosida yetib kelgan.

Jamiyat ongida vatanparvarlik g‘oyasining elementlari paydo bo‘lib, tarixiy shart-sharoitlar, rivojlanish genezisi, madaniy yuksalish, ta’lim va tarbiya, diniy e’tiqod, ijtimoiy ongda moddiy manfaatdorlik, shaxsiy va umumiy daxldorlik hamda uning xususiyatlari tahlili, ma’naviy hodisaning ijtimoiy jarayon bilan integratsiyasini yuzaga keltiradi. Bu jarayon milliy va umuminsoniy sifatlarni o‘zida aks ettirib, har bir davr va jamiyat uchun hayotiy zarurat bo‘lgan vatanparvarlik g‘oyasining yuzaga kelishiga zamin bo‘lib xizmat qilgan.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi uzluksiz jarayon bo‘lib, u bir-biriga bog‘liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy-mafkuraviy, madaniy-ma’rifiy tadbirlar majmuasidan iborat. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, Oliy Majlis palatalari qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Qurolli Kuchlarning Umumharbiy nizomlari va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq olib boriladi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari muntazam ravishda tizimli va ilmiy asosda tashkil etiladi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi quyidagilardan iborat:

– ta’lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatga molik qadriyatlarni, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalari;

– ommaviy va harbiy-vatanparvarlik ishlarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek boshqa tashkilotlar.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy prinsiplari: ilmiylik, tarixiylik, aniqlik va tezkorlik, muntazamlilik, faollik, ta’lim va tarbiya ishlarining uyg‘unligi, tarbiya jarayonining izchilligi, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanishdir.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari yoshlarda zarur hayotiy bilim, ko‘nikma, mahorat va mustahkam irodani, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan omillardan iborat.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ishontirish, mashq qildirish va mustaqil ishlash, kuzatish, rag‘batlantirish, o‘rnak ko‘rsatish va shaxsiy namuna kabi usullari bor. Bunday tarbiyalash turli shakllarda, jumladan ilmiy-amaliy anjumanlar, savol-javob kechalari, kitobxonlik, o‘yinlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar tarzida va boshqa shakllarda tashkil etiladi. Ular ma’naviy-ma’rifiy ishlarning rang-barangligini ta’minlaydi, pirovard natijada jamiyatda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Quyidagi shakllantiruv muhim ahamiyatga ega bo‘ladi:

– ma’ruza o‘qish, savol-javob kechalari, yakka va jamoaviy suhbatlar;

– boy hayotiy tajribaga ega bo‘lgan harbiy xizmatchi va faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g‘olib bo‘lgan shaxslar bilan uchrashuvlar;

– ilmiy-nazariy va amaliy konferensiyalar, seminar-treninglar, muayyan mavzuga bag‘ishlangan kechalar, bahs-munozaralar, viktorinalar, davra suhbatlari;

– to‘plangan ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish;

– jamoatchilik fikri va harbiy jamoalardagi ma’naviy-ruhiy muhitni o‘rganish;

– teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar, film va multfilmlar, badiiy va musiqiy asarlar, askar qo‘shiqlari, ommaviy axborot vositalari, veb-saytlar va elektron o‘yinlar va boshqa texnik vositalardan foydalanish;

– urush va mehnat faxriylari, jangovar harakatlar ishtirokchilari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish;

– harbiy xizmatga chaqiriluvchilar kuni, mardlik saboqlarini o‘tkazish va ekskursiyalar uyushtirish.

Davlat yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini tashkil etish, uning natijalari monitoringini yuritishni ta’minlaydigan asosiy institut hisoblanadi. Davlat yosh avlodning tarbiya jarayonini oilada, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalarida, harbiy xizmat davomida, shuningdek fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, turli davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari doirasida tashkil etadi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari quyidagi to‘rt bosqichda amalga oshiriladi:

a) birinchi bosqich *(3-7 yoshdagilar)* atrofdagi olam, Vatan haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo‘ladigan bosqich hisoblanib, unda oila va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga turli she’rlar, kuy-qo‘shiqlar o‘rgatish, multfilm va turli o‘yinlar namoyish etish, rasmlar chizish orqali dunyoni anglash, davlat ramzlari *(bayroq, gerb, madhiya)* bilan tanishish asosida ularda yurtga muhabbatni shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

b) ikkinchi bosqichda *(7-16 yoshdagilar)* o‘quvchilarning Vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, Vatan oldidagi farzandlik burchini yuksak mas’uliyat bilan bajarish, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo‘lgan ijobiy fikrlarni yanada kengaytirish, harbiy xizmat nufuzini ko‘tarish, yoshlarning jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk, keng dunyoqarashli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish kabi ezgu ishlarga da’vat etiladi.

v) uchinchi bosqich *(16-18 yoshdagilar)* yoshlarda Vatanga va uning himoyasi uchun munosib xizmat qilishga ruhan va jismonan tayyorlikni ta’minlashga yo‘naltiriladi.

g) to‘rtinchi bosqich *(18-30 yoshdagilar)* yoshlarning jismoniy va ma’naviy qobiliyati, yetakchilik ko‘nikmalari hamda intellektual salohiyati, umumiy va professional malakasini oshirish, ularni o‘z ustida muntazam ishlash, sog‘lom hayot kechirishga undash hamda shunga erishishni nazarda tutadi.

Ta’lim oluvchilarda vatanparvarlik darajasi ko‘rsatkichlarini pedagogik tahlil qilish va baholashda sevimli xalqning shon-sharafi, qadr-qimmati, madaniyati va an’analariga ehtiyotkorlik bilan qilingan munosabatda o‘z ifodasini topadi. Vatanparvarlik fuqarolar yakdilligi, mustaqil O‘zbekiston davlati barpo etilayotgan negizdir. Ayni shu narsa jamiyatni qayta o‘zgartirish yo‘lidagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishga, hamjihatlik va hamkorlikka erishishga yordam beradi.

Globallashuv jarayonlarining dunyo ilm-fani va ta’lim jarayonlariga ta’siri shubhasiz. Dunyoni yangicha rivojlanish yo‘liga burgan bunday katta masshtabdagi hodisaning salbiy oqibatlaridan ihotalanish va ijobiy jihatlaridan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ijtimoiy fan sohalari ilmiy jamoatchiligi oldidagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bunday sharoitda zamonaviy talablarga javob beradigan sifatli ta’lim tizimiga globallashuvning salbiy oqibatlariga qarshi kurash va yoshlar ongini yot ta’sirlardan saqlashning muhim omili sifatida qarash lozim.

Bunyodbek SHERMATOV,
Rasulbek RAJABOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi katta o‘qituvchilari

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi tashkil etilganiga 5 yil to‘ldi. Qisqa vaqt mobaynida mazkur ta’lim muassasasi rahbariyati hamda pedagogik jamoasining izlanish va sa’y-harakatlari bilan O‘zbekiston Qurolli Kuchlari qo‘shinlari uchun rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash borasida o‘ziga xos tajriba to‘plandi.





ASOSIY VAZIFA – Qurolli Kuchlar rezervini shakllantirish



– Har bir mamlakatning kuch-qudrati, dunyo hamjamiyatida tutgan o‘rni, siyosiy-iqtisodiy rivoji uning yosh kadrlari salohiyati bilan belgilanadi. Shu bois mamlakatimiz ta’lim tizimining alohida bo‘g‘ini – harbiy ta’lim yo‘nalishida ham jiddiy islohotlar o‘tkazildi. Bu jarayonlarni markazimiz faoliyatida ham kuzatish mumkin, – deydi O‘zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi boshlig‘i, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, polkovnik Kozimbek Haydarov.

– Xususan, rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash bo‘yicha malaka talablari ishlab chiqildi va shu talablardan kelib chiqqan holda, Mudofaa vazirligi boshqarma va bo‘limlari hamda Qurolli Kuchlar akademiyasi mutaxassislari bilan hamkorlikda 31 ta harbiy mutaxassislik bo‘yicha barcha o‘quv dasturlari yangilandi.

Ilmiy faoliyat doirasida 26 nafar professor-o‘qituvchimiz mustaqil izlanuvchi sifatida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda, 25 nafar professor-o‘qituvchi dotsent ilmiy unvonini oldi, ikki nafar ofitser falsafa fanlari va pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasiga ega. Bugun markaz ilmiy salohiyati 40 foizga yetdi.

– Umumqo‘shin tayyorgarligi, artilleriya, aviatsiya mutaxassisliklari va harbiy tashuvlar, zirhli hamda avtomobil texnikalaridan foydalanish va ta’mirlash, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar, front orti va moliyaviy ta’minot kabi sikllarning o‘quv va moddiy-texnik bazasini takomillashtirish orqali ta’lim sifatini yaxshilash ishlari muntazam davom etmoqda. Shuningdek, nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlash maqsadida oliy harbiy ta’lim muassasalari, harbiy qismlar va tegishli oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik kelishuvlari imzolangan. Unga ko‘ra, kursantlarimizning ixtisosliklaridan kelib chiqib, dala mashg‘ulotlari maydonlarida, o‘quv markazlarida amaliy mashg‘ulotlarda ishtirok etishmoqda. Ularning bilim va ko‘nikmalari respublika miqyosida o‘tkaziladigan musobaqa va bellashuvlarda namoyon bo‘lmoqda, – deydi markazning tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar sikli boshlig‘i, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, podpolkovnik Saidikrom Usmonov.



– Ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalar, yangi avlod o‘quv adabiyotlari hamda elektron manbalardan foydalanish kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish bilan birga bo‘lg‘usi ofitserlarning harbiy ilm-fanga bo‘lgan qiziqishini orttirmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarining 3-bosqichini tugatgan talabalar tegishli imtihon, sinov va ko‘riklardan muvaffaqiyatli o‘tgandan keyin markazga o‘qishga qabul qilinadi. Qabulda ularning bilim bo‘yicha reyting darajasi ham inobatga olinadi.

Belgilangan nizomga muvofiq, talabalarning harbiy tayyorgarlikdan o‘tish davridagi bilimi tegishli tartibga ko‘ra baholanadi. Harbiy tayyorgarlik bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasini topshirgan va bakalavriatning to‘liq kursini muvaffaqiyatli yakunlagan talabalarga leytenant harbiy unvoni berilib, ular haqiqiy harbiy xizmatga chaqiriladi yoki rezervga yoxud zaxiraga o‘tkaziladi.

Furqat ERGASHEV

VATAN ISHONCHIDAN DILDA IFTIXOR

Yoniq ko‘ksingizda so‘nmasin shiddat,
Mardlikka chorlaydi yurtga muhabbat,
Jasoratga qodir yurakdagi ahd,
Vatan ishonchini oqlang, o‘g‘lonlar!

Vatan himoyasi er yigitlar uchun hamisha sharafli burch bo‘lib kelgan. Yuragida yigitlik burchini o‘tash ishtiyoqi bilan yongan o‘g‘lon borki, armiya maktabida toblanishni istaydi. O‘smir chog‘idan boshlab jismonan baquvvat va sog‘lom bo‘lishga harakat qiladi, harbiy xizmatga munosib topilishga intiladi. Samarqand garnizonidagi harbiy qismda bo‘lganimizda mana shunday o‘tyurak o‘g‘lonlar bilan suhbatlashdik. Askarlik burchini namunali o‘tab kelayotgan posbonlar haqida maqolalar tayyorlashga qaror qildik.

“OTAMNING ISHONCHINI ALBATTA OQLAYMAN!”



Nuriddin aka va O‘g‘iloy opa kenja farzandi Ozodjonni muddatli harbiy xizmatga kuzatdi. Xayrlashuv oldidan Nuriddin aka o‘g‘liga nasihat qildi:

– O‘g‘lim, askarlik burchingni yaxshi o‘ta, komandirlaring izmidan chiqma, harbiy bilimlarni yaxshi o‘zlashtir. Senga ishonaman, albatta ishonchimizni oqlab, kelajakda bobongning yo‘lini davom ettirasan. Sening kelajakda harbiy soha vakili bo‘lishing nafaqat bobongning, balki onang ikkimizning ham eng katta orzumiz. Duolarimiz sen bilan, oq yo‘l, o‘g‘lim!

– Rahmat, albatta ishonchingizni oqlayman, dada! – otasiga yigitlik va’dasini berdi o‘g‘il.

Mana, shunga ham yetti oy bo‘lyapti. Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan oddiy askar Ozodjon Husanov bugun a’lochi posbonlar safida. Uning istiqboldagi maqsadi – ofitserlar safida Vatan himoyachisi bo‘lish. U tanlagan yo‘li haqida quyidagicha to‘xtalib o‘tdi:

– Mening harbiy sohaga qiziqishimda umumta’lim maktabida o‘quvchilarga chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanidan saboq bergan bobomning hissasi katta. Iste’fodagi kapitan bo‘lgan bobom nabiralari orasida Vatan himoyachilari chiqishini niyat qilgan. Men uchinchi sinfdan boshlab o‘zbek jang san’ati bilan shug‘ullanganman, tengqurlarim orasida kuchli, baquvvat bo‘lishga harakat qilganman. Muddatli harbiy xizmatga munosib topilganim ham omadim. Xizmat davomida ko‘p narsaga erishdim, o‘zimga bo‘lgan ishonchim ortdi. Safdoshlarim bilan o‘z sohasining bilimdoni bo‘lgan talabchan komandirlarimizdan harbiy soha sirlarini o‘zlashtirib kelyapmiz. Tinimsiz harakat va intilish hayotdagi shiorimga aylangan. Maqsadim – otamning ishonchini oqlab, askarlik burchimni namunali o‘tab, o‘zim qiziqqan harbiy sohada qad rostlash. Ofitser bo‘lib, bobomning izini bosish va yuqori unvonlarga erishish. Kelgusida nafaqat ota-onam va yaqinlarim, balki farzandlarim ham men bilan faxrlanishlarini istayman.

QORAQALPOQ O‘G‘LONI



Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Sardorbek Zaripov Qoraqalpoqning Amudaryo tumanidan xizmatga chaqirilgan. Mang‘it shahrida voyaga yetgan yigit harbiy xizmatga qadar ota-onasi Mansur aka va Nasiba opaning tadbirkorlik ishlariga yaqindan yordam berdi. O‘z o‘rnida ushbu soha sirlarini o‘zlashtirib bordi. Shuni inobatga oladigan bo‘lsak, “xobbi”si tadbirkorlik bo‘lgan Sardorbekning kelajak rejalari aniq, ya’ni ota-ona faoliyatini davom ettirish. Ayni fursatda askarlik burchini bajarayotgan yigitga armiya maktabi nima berdi? Keling, uning fikri bilan qiziqamiz:

– Muddatli harbiy xizmat yigitlar uchun katta hayot maktabi, desam, arziydi. Harbiy nizom talabiga asoslangan qat’iy rejim, qat’iy qonun-qoida, harbiy mashg‘ulotlar men va safdoshlarim uchun haqiqiy sinov onlari bo‘ldi. Ilk harbiy ko‘nikmalarga moslashuv jarayoni oson kechdi, deb ayta olmayman. O‘z navbatida, barchamizning sabr-iroda, g‘ayrat va iqtidorimiz sinovdan o‘tdi. Xizmat davomida ma’lum yutuqlarga erishdik, do‘stlar orttirdik. Oldimizda egallashimiz lozim bo‘lgan navbatdagi harbiy bilim va sinovlar, erishajak marralar bizni kutmoqda. O‘ylaymanki, bu talablarni ham sidqidildan ado etamiz va muvaffaqiyat qozonamiz. Chunki bizga har tomonlama zakovatli, talabchan va bilimdon komandirlar saboq bermoqda. Bir haqiqatga ishonaman, armiya maktabida kechgan posbonlik davrim hayotimga muhrlanib qoladi. Necha yillar o‘tmasin, bu onlarni faxr bilan eslayman.

Darhaqiqat, harbiy xizmat sinovlarida toblangan o‘g‘lonlar yigitlik burchining sharafli sahifalarini unutmasligi aniq. Negaki, yoshlik shijoati to‘lib-toshgan bu davrdagi harbiy ko‘nikma, ta’lim-tarbiya va shukuhli damlar ularning hayotida, istiqbolida katta iz qoldirishiga shubha yo‘q.

GURUHNING ILG‘OR O‘QCHISI



– Muddatli harbiy xizmatga kelgan yigitlarning har birining o‘z o‘rni, iqtidori va maqsadi bor, – deydi guruh komandiri III darajali serjant Ahmed Gapparov. – Guruhimiz yigitlari orasida oddiy askar Asilbek O‘rinboyev zimmasidagi vazifasiga mas’uliyat ila yondashishi bilan ajralib turadi. Uni safdoshlari “guruhning ilg‘or o‘qchisi”, deya ta’rifladi. Bu bejiz emas albatta. Vazifasi o‘qchi bo‘lgan O‘rinboyev sinov mashg‘ulotlarida yuqori o‘rinlarni egallab kelmoqda. Bunday intiluvchan posbonlar har doim harbiy jamoa faxri bo‘lib kelgan. U askarlik burchini namunali o‘tab, kelajagini o‘zi orzu qilgan Vatan himoyachisi bo‘lishdek sharafli xizmatga bog‘lashiga ishonamiz.

Guruh komandiri ta’kidlab o‘tganidek, muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan yigitlarning har birining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi bor. Asilbek ham yoshlik chog‘idan boshlab harbiy xizmatchi bo‘lgan akasi Haydarbekka havas qilgan. Uning yurt himoyasi bilan bog‘liq qiziqarli voqealarini har gal jon-qulog‘i bilan tinglar, akasi kabi harbiy libos egasi bo‘lishni ko‘z oldiga keltirib, yuragi hapriqardi. Mana bugun o‘sha orzu ostonasida turibdi u. Ezgu niyatiga erishish esa o‘z qo‘lida. Ya’ni maqsad yo‘lidagi qiyinchiliklardan ortga chekinmaslik, harakat va intilish orzu ro‘yobini belgilaydi.


– To‘qqiz yoshimdan erkin kurash bilan shug‘ullanganman, – deydi oddiy askar Asilbek O‘rinboyev. – Tumandagi sport musobaqasida qatnashib, yuqori o‘rinni qo‘lga kiritganman. O‘quvchilik davrimdan erishgan yutuqlarimda ota-onamning o‘rni katta. Buni armiya maktabiga kelib, yanada teran angladim. Aytmoqchimanki, harbiy xizmat davomida ota-onamning qadriga yetdim, Vatanga xizmat qilish haqiqiy yigitlik burchim ekanidan g‘ururlandim. Harbiy xizmatning ilk davridan boshlab safdosh do‘stlarim oddiy askarlar Rustam Toshmatov va Ro‘zibek Sulaymonov bilan bir-birimizga yelkadosh bo‘lib kelyapmiz. Qiyinchilik va sinovli onlarda doim birgamiz, doimo g‘olib bo‘lishga intilamiz. Menga jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlari juda yoqadi. Bu borada egallagan nazariy bilimlarimizni amaliyotda qo‘llash, o‘z o‘rnida mas’uliyatli va qiziqarli. Bir so‘z bilan aytganda, yigitlik burchimizning eng qaynoq pallasidamiz. Barchamizning maqsadimiz bir – askarlik vazifamizni talab darajasida o‘tab, ota-ona, yaqinlarimiz bag‘riga yorug‘ yuz bilan qaytish va albatta, kelajak maqsad sari dadil intilish.

Kichik serjant Bahromjon USMONOV

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”

Bugungi kunda mamlakatimiz Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida milliy armiyamizni zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalar bilan ta’minlash, qo‘shinlar jangovar qudratini oshirish bilan bir qatorda harbiy xizmatchilarning turli jangovar sharoitlarda axloqiy-ruhiy holatini barqarorlashtirish va ma’naviy saviyasini ko‘tarishdek ulkan maqsadlar mujassamlashgan.

HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA TAFAKKUR



Mohiyatan jangovar faoliyat maqsad va vazifalari, sharoiti, vositalari, qiyinchiliklari, psixologik mazmuniga ko‘ra, butunlay o‘ziga xosdir. U o‘zining quyidagi turlari orqali bir qator omillarga ta’sir o‘tkazuvchi psixologik qonuniyatlari, aniq ichki tuzilishi *(strukturasi)*, maqsadi, motivlari, usullariga ega: harbiy-siyosiy, harbiy-texnik, g‘oyaviy va psixologik, qurolning turi, jamoaga rahbarlik qilish, jang paytida o‘tkaziladigan axloqiy-ruhiy tayyorgarlik.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik deganda, harbiy xizmatchilarning xarakteri, temperamenti, yo‘nalishi, irodaviy sifat va qobiliyatlarini tushunish lozim. Shu bois harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalar jang va xizmat uchun zarur bo‘lgan jangovar mahorat va sifatlarni, shuningdek tinchlik va jangovar vaziyatlarda shaxsiy tarkib faoliyati samaradorligini oshirishning psixologik yo‘llarini shakllantirishdan iborat.

Jangovar harakatlar davomida harbiy xizmatchilar psixikasining o‘ziga xos funksiyasi va namoyon bo‘lishini ochib berish uchun alohida harbiy xizmatchilar va harbiy jamoaning faoliyatiga muvaffaqiyatli boshchilik qilish, psixologik tayyorlash zarur bo‘ladi. Buning uchun esa har bir komandir o‘z shaxsiy tarkibining individual xususiyatlari va psixologik jarayonlarining rivojlanganlik darajasini bilishi zarur. Ushbu holatda psixologik bilish jarayonlaridan biri tafakkur alohida ahamiyat kasb etadi.

Tafakkur narsa va hodisalar o‘rtasidagi eng muhim bog‘lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishidir.

Tafakkur obyektiv borliqning inson tomonidan anglashning yuqori bosqichidir. Sezgi va idrok bilishning birinchi bosqichlari bo‘lgan holda vaziyatning o‘ziga xosligi va predmetlarning to‘g‘ri aks ettirish imkonini beradi. Lekin obyektiv sharoitlar, shuningdek jangovar vaziyat haqida faqat o‘ziga xosliklar yig‘indisi, sifati va predmetlar bilan xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Bu murakkabroq. Jangovar vaziyatda to‘g‘ri mo‘ljalga olish va dushman imkoniyatlarini baholash uchun nafaqat atrofdagi predmet va hodisalarni sezish va idrok qilish, balki ular o‘rtasidagi o‘ziga xosliklar, aloqa va munosabatlarni ongda aks ettirish lozim.

Predmetlar va hodisalar o‘rtasidagi aloqa va munosabatlar moddiy va sezilarli emas. Shu sabab inson sezgisi va idrokida aks etmaydi. Ularning ongida sezgi va idrok orqali miyaga berilgan materiallar bazasida bo‘lib o‘tadigan tafakkur asosida aks etadi.

Jangovar vaziyat nafaqat alohida sifatlari va o‘ziga xosliklari bilan, balki ma’lum predmetlarning yig‘indisi, ular o‘rtasidagi murakkab aloqa va munosabatlar bilan xarakterlanadi. Bu dushman jangovar tartibi, bo‘linmalarning hamkorlikdagi harakati, g‘oyasi, u ko‘zlayotgan maqsad va boshqalar. Bu barcha aloqa va munosabatlar harbiy xizmatchining ongida tafakkur jarayoni orqali aks etadi.

Obyektiv borliqdagi murakkab aloqa va munosabatlarning aks etishi inson miyasida sezgi va idrok orqali olingan ma’lumotlarni qayta ishlash evaziga erishiladi. Bu qayta ishlash – hozirgi onda, oldin tajribada aks etgan ma’lumotlarni taqqoslash bilan bog‘liq murakkab jarayon, borliqdagi alohida elementlarni ajratib olish tizimi **sintezdir**.

Bizni o‘rab turgan dunyodagi aloqa va munosabatlarning tafakkurda aks etishi o‘rganilayotgan predmetga har xil yondashuvlarda namoyon bo‘ladigan turli operatsiyalar asosida amalga oshiriladi. Psixologiya quyidagi tafakkur operatsiyalarini ajratib ko‘rsatadi: analiz *(tahlil)*, sintez *(bir butun xulosa chiqarish)*, taqqoslash, abstraksiya *(mavhumlik, umumlashtirish va konkretlashtirish)*.

Analiz yaxlit narsalarni qismlarga ajratishdan iborat, ushbu predmet yoki hodisaning elementlari, o‘ziga xosliklari va belgilarining xayolan ajratilishidir. **Sintez** esa analizga nisbatan teskari tushuncha.

Sintez predmet va hodisalar o‘rtasidagi muhim aloqa va munosabatlarning tahlili asosida ochilgan qismlarga bo‘lingan ma’lumotlarni qayta umumlashtirib, bir butun xulosa chiqarishdir.

Predmet va hodisalar o‘rtasidagi umumiylik va farq, ularning xususiyati va sifatining o‘ziga xosligi **taqqoslash** orqali amalga oshiriladi. Masalan, bo‘linmada yakun o‘tkazilganda jangovar tayyorgarlikdagi ilg‘or bo‘linmalar va harbiy xizmatchilarning yutuqlarini ko‘rish imkonini beradi, ilg‘orlar va qoloqlar aniqlanadi, bo‘linma tayyorgarligining umumiy darajasi aniqlanadi.

Abstraksiya muhim va obyektiv qonunlarga asoslangan belgilarni ajratib olish maqsadida predmetning xususiyati va aloqalari haqida diqqatning u yoki bu tomonga xayolan bo‘linishidir.

Nihoyat, **konkretlashtirish** – predmet yoki hodisaning ma’lum bir tomonini ajratib ko‘rsatish va batafsil ko‘rib chiqish. Masalan, komandir dushman tanklari bilan bo‘ladigan jangni turli usullar bilan olib borsa bo‘ladi, deydi: tankka qarshi granatalar, granatomyotlarni; portlovchi modda solingan shashka, tankka qarshi turli minalarni qo‘llagan holda. Undan keyin esa u har usulni ochib, tushuntirib beradi.

Tafakkur quyidagi shakllarda aks etadi: **tushuncha, mulohaza, xulosa chiqarish**.

Tushuncha – inson ongida predmet va hodisalarning umumiy va muhim xususiyatlarining aks etishi. Tushuncha xayol elementi, bizni o‘rab turgan borliqning aks etishining oliy bosqichi. Aynan tushunchaning asosidagina inson tafakkuri rivojlanadi. Tushunchalar shakllanishini quyidagi misolda ko‘rishimiz mumkin. Mohir o‘q otish ustasi bo‘lish uchun askar jiddiy tayyorgarlikdan o‘tadi. Boshida u o‘q otish qurolini ko‘rsatish va uning xususiyatlari va sifati haqida gapirib berish yo‘li bilan tanishtiriladi. Keyin o‘rganish jarayonida esa u qurolning alohida tizimlari haqida ma’lumot oladi, uning bilimi konkretlashadi. Asta-sekin u turli tizimlarni ularni ko‘rmay turib ham tasavvur qila oladi. Keyinchalik esa o‘q otish quroli haqida har tomonlama va chuqur tushuncha paydo bo‘ladi.

Tafakkurning keyingi shakli **mulohazadir**. Mulohaza qilish eng avvalo nima haqidadir fikr yuritishdir. Fikr yurtishda xayolning yakuni aks etadi: u qandaydir faktning rad etilishi yoki tasdiqlanishi, predmet va hodisalar o‘rtasidagi aloqa va munosabatlardir.

Tafakkur faoliyatining yana bir turi **xulosa chiqarishdir**. U bir yoki bir necha mulohazalardan iborat xulosadir. Komandirning qaror qabul qilishi xulosa chiqarishga misol bo‘la oladi. Vazifani aniqlashtirib, u – birinchi, vaziyatni aniqlashtira turib – ikkinchi, qaror qabul qila turib – uchinchi mulohazani yuritadi. Har bir mulohaza oldingisidan kelib chiqadi. Mulohazaning bunday rivojlanish yo‘li xulosa chiqarish deyiladi.

Tafakkur inson faoliyati xarakteridan kelib chiqib, quyidagi turlarga bo‘linadi: aniq amaliy natija beradigan, ifodali *(obrazli)*, mavhum.

Aniq amaliy natija beradigan tafakkur bevosita faoliyatga bog‘liq. Yerga tushayotgan, dushman askarlariga qarata o‘t ochayotgan, desant tushirish rayonida bo‘lgan, vaziyatni tahlil qilish va baholashda o‘z qat’iy fikriga ega, bir lahzada maqsadga muvofiq reaksiya tanlay oladigan, har bir harakat va vaziyatni mutanosiblashtiruvchi desantchi harakati bunga misol bo‘la oladi.

Ifodali *(obrazli)* tafakkur inson oldin idrok qilgan obrazlarni tasavvur qilish asosida amalga oshiriladi. Ba’zida tafakkurning bu turi vazifani to‘g‘riroq bajarishni ta’minlaydi. Demak, komandir xayolan qarshi jangni tasavvur qilayotganda o‘z qo‘shinlari hamda dushman qo‘shinlari harakatlanishining turli variantlarini tasavvur qiladi.

Mavhum tafakkur ifodali tasavvur qilinmaydigan mavhum tushunchalar asosida amalga oshiriladi. Bunday tafakkur, masalan, yirik operatsiyalarni rejalashtirishda qo‘llaniladi. Mavhum tafakkur amaliy tajribalar bilan mustahkamlanadigan nazariy bilimlar asosida rivojlanadi. Bunda inson shug‘ullanayotgan faoliyat sohasiga bog‘liq murakkab tushunchalarga tayangan amaliyot muhim ahamiyatga ega. Bunday amaliyot seminarlar, amaliy konferensiyalar, mashg‘ulotlar davomida berib boriladi.

Harbiy xizmatchining tafakkuri jangovar va axloqiy-ruhiy tayyorgarlik davomida shakllanuvchi harbiy xizmatchi uchun zarur bo‘lgan sifatlar bilan bir qatorda xarakterlanadi. Bunday sifatlarning mavjudligi sezilarli darajada jangga psixologik tayyorlik darajasini ta’minlaydi. Harbiy xizmatchilarda tafakkurni rivojlantirishda, ko‘pincha uning asosida jangovar vazifani bajarish bosqichlarining ketma-ketligini tushunishga bog‘liq. Harbiy jamoalarda psixologik ishlarni puxta tashkil etish harbiy xizmat samaradorligi oshishiga, shaxsning sog‘lom psixologik qiyofasining saqlanishiga, ayniqsa harbiy jamoalarda psixologik muhitning shakllanishi, rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Har bir inson, shu jumladan harbiy xizmatchi o‘z ishining sifati va samaradorligini oshirish uchun o‘zining imkoniyatlarini bilish bilan birga o‘zgalarning imkoniyatlari hamda xatti-harakatlarini bashorat qila olish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Bunga erishish esa harbiy psixologik bilimlarni chuqurroq o‘rganishni talab etadi. Tasavvur qiling, agar inson yashab turgan hayotidan nimani xohlayotganini aniq bilmasa, muayyan muammolarga duch keladi. Inson, avvalo, o‘zining ruhiy imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olgan taqdirdagina hayotda muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

Shundan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, psixologik imkoniyatlarga to‘g‘ri baho bera olmaydigan hamda o‘zini yetarli darajada tushunmaydigan harbiy xizmatchi faoliyatida ketma-ket xatolarga yo‘l qo‘yadi. Bu yo‘l qo‘yilgan xatolar juda katta ko‘ngilsizliklarni keltirib chiqarish bilan bir qatorda boshqa harbiy xizmatchilarning ham ruhiy holatiga salbiy ta’siri yuqori bo‘lishi mumkin. Shunday ekan, har bir harbiy xizmatchiga o‘z shaxsiy xatti-harakati boshqalar psixologiyasi va faoliyatiga daxl qilishini doimiy ravishda, kerak bo‘lsa, birlamchi omil sifatida uqtirish zarur.

Podpolkovnik E. EGAMOV,
Qurolli Kuchlar
akademiyasi o‘qituvchisi

Ajdodlar ibrati

BUYUK SOHIBQIRONNING ODIL JAMIYAT BARPO ETISH BILAN BOG‘LIQ QARASHLARI



> Yangi O‘zbekiston g‘oyasi asosida dadil odimlab borayotgan taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini ta’minlash siyosiy jabhadagi jarayonlar bilan bog‘liqligi hech kimga sir emas. Binobarin, davlat boshqaruvi sohasidagi faoliyatning takomillashuvi davlat xizmatchilarining islohotlardagi ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo davlatchilik tarixi shundan dalolat beradiki, hamma zamonlarda ham siyosiy boshqaruv jarayoni odilligi o‘sha mamlakatlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlagan. Bu jarayonda asosiy omil birgalikdagi faoliyatni tashkil qilish masalasi bo‘lgan. Umuman, insoniyat birgalikda har qanday mehnatni yengish mumkinligini anglashi bilan davlatchilikning ilk ko‘rinishlari vujudga kelgan deyish mumkin.

Birgalikda mehnatni tashkil etishning eng oddiy shakllari ibtidoiy jamoa tuzumida ham mavjud bo‘lgan. Masalan, ko‘pchilik bo‘lib, hayvonlarni ushlab yeyish yoki hujumlar natijasida boshqalarning yerlaridagi mahsulotlarga egalik qilish va ularni o‘zlashtirish kabi ko‘rinishlari bo‘lgan. **Miloddan oldingi III–II asrlarga kelib, o‘zlashtiruvchi iqtisodiyotdan ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotga o‘tish boshqaruv apparatining takomillashib borishini ko‘rsatadi**.

Bu boshqaruvning tubdan yangi shakllarini keltirib chiqardi. Jumladan, Qadimgi Misrda birgalikda faoliyat olib boradigan katta xalq armiyasini tashkil etuvchi ulkan davlat apparati vujudga keladi; shuningdek bir necha yuz yillar davom etgan yunon davlatchiligi Suqrot zamoniga kelib, boshqaruv jamoatchilik nazorati darajasiga ko‘tarildi; Arastuning siyosat asarida 150 dan ortiq shahar va davlatdagi boshqaruv tamoyillari haqida fikr yuritiladi; dunyoni boshqarish da’vosi bilan davlatchilikni boshqargan A. Makedonskiy faqat buyruq asosida boshqarish nazariyasi va amaliyotini yo‘lga qo‘yganini ko‘rish mumkin.

Bizning qadimiy davlatchilik tariximizda boshqaruvning demokratik – odil ildizlari mavjud bo‘lgan. Xalq hayotiga daxldor eng muhim masalalar qurultoy, kengash va mashvaratlar orqali hal etilganini ko‘rish mumkin.

Odil – demokratik jamiyat barpo etish haqida gap borar ekan, Amir Temur va temuriylar davriga alohida to‘xtalmoq lozim. Chunki bu davrda demokratik jamiyat nazariyasi emas, balki uning real voqelikda namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq muhim ilmiy-falsafiy g‘oyalarni uchratishimiz mumkin.

XII–XIII asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasini mo‘g‘ullar tomonidan bosib olinishi shakllanayotgan milliy davlatchilik tamoyillari rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, ma’naviy hayotda, iqtisodiyotning izchil rivojlanishida va ijtimoiy munosabatlarda bu ta’sir yaqqol namoyon bo‘lgan edi. Markaziy Osiyo xalqlarining qattiq jabr-zulm ostiga olinishi, mehnatkash mahalliy aholining qattiq ezilishi, ularga nisbatan zo‘ravonlik siyosati tarixdan bizga ma’lum. Eng ayanchlisi shundaki, ming yillar davomida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan madaniy meroslar, moddiy meroslarimiz bo‘lgan ilm-fan maskanlari, madrasalar va qiroatxonalar yakson qilinadi. **Ana shunday bir murakkab davrda Amir Temurning tarix sahnasiga chiqishi va Markaziy Osiyoda mustaqil davlatchilik tizimini shakllantirishi mamlakatda ichki nizolarni, mahalliy xalqqa nisbatan adolatsizlikni bartaraf etishga olib keldi**.

Amir Temurning Markaziy Osiyo xalqlari tarixida adolatli davlat barpo etishda tutgan o‘rni alohida ahamiyatga molikdir. U markazlashgan yirik davlatga asos solgan buyuk siymodir.

Markazlashgan davlatchilikning qisqa tarixiy davrda mustahkamlanishi, mavjud siyosiy kuchlarni tarqoqligiga chek qo‘yishga va ular o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga olib keladi. Ta’kidlamoq kerakki, ana shunday sharqona demokratik jamiyatning o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan bu tarixiy davrda ijtimoiy-siyosiy islohotlarning, shuningdek ilm-fan va madaniyatning, davlat boshqaruvi tizimining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar shakllana boshladi.

E’tiborli jihati shundaki, musulmonlarga diniy masalalardan ta’lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tavsif, hadis, fiqhdan dars bersinlar, deb har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qilgani sohibqironning demokratik tizimni ijtimoiy hayotga joriy etish uchun ma’naviyat, mafkura va g‘oyaning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratganini ko‘rsatadi. Ijtimoiy qatlamlar va guruhlarga tayangan holda, faoliyat yuritish hamda ularning manfaatlarini himoya qilish o‘sha davr boshqaruvining o‘ziga xos jihatlaridan biri edi. Temur esa davlatni boshqarishda alohida ijtimoiy guruhlar, sinflar manfaatlarini himoya qilmasdan, davlat tizimining qatlamlariga, har bir fuqaroga tayanadi. **“Millatning dardlariga darmon bo‘lmoq vazifangizdir. Zamrolarni ko‘ring, yo‘qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo‘lsin!”** deydi Amir Temur.

Buyuk siyosatchi va davlat arbobi sifatida Temur o‘z davlatining siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-falsafiy tamoyillarini yaratdi va idora *(ya’ni boshqaruv ma’nosida)* shaklini, uning ilk kurtaklarini ko‘rsatdi.

Temurning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida adolat kategoriyasi alohida o‘rin egallaydi. Uning tuzuklarida davlat tizimini boshqarish vositalari, harbiy qo‘shinlarni tashkil etish, davlatni tashqi xavfdan muhofaza qilish, adolatli soliq tizimini joriy etish, mamlakatni obodonlashtirish bilan bog‘liq tadbirlar mamlakatda milliy demokratik jamiyatning yuksak madaniy-ma’rifiy va huquqiy asoslari yaratilganidan dalolat beradi.

Bunday odilona olib borilgan ichki va tashqi siyosatning mohiyati esa adolatli davlat, demokratik jamiyat negizlarini qaror toptirishga qaratilgan edi. **“Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulm-u sitam yo‘lini to‘sdim”**, degan so‘zlar Temurning odil jamiyatning mazmun va mohiyatini, fuqarolarning haq-huquqi va manfaatini himoya qilish oliy qadriyat ekani haqidagi g‘oyasining ifodasidir. Sharqona demokratik jamiyat, Temur fikricha, ijtimoiy normalarsiz, ayniqsa huquqiy va axloqiy normalarsiz, mavjud bo‘lolmaydi. **“Saltanat martabasini qonun-qoidalar asosida shunday saqladimki, – deb yozadi Amir Temur, – saltanat ishlariga aralashib ziyon yetkazishga hech bir kimsaning qurbi yetmas edi”**.

Bu davrda Amir Temur davlat boshqaruvining demokratik asoslarini yaratishda kengash, mashvarat, maslahat, hushyorlig-u mulohazakorlik, mafkura va ma’naviyatga alohida e’tiborini qaratadi.

Temur turli usullar bilan davlat boshqaruvi tizimida faoliyat yurgizayotgan kishilarda yaxshi sifatlarni shakllantirish mexanizmini ishlab chiqqan edi. **“Agar har narsani, har kimni o‘z martabasida saqlay olmasang, – deb ta’kidlaydi u, – saltanatingga bundan ko‘p ziyon yetgay. Demak, har kimning qadr-qimmatini, tutgan mavqeini va har narsaning o‘lchovini belgilab olishing va shunga muvofiq, ish yuritishing kerak”**.

Davlat xizmatidagi shaxslarning salohiyatini, o‘z sohasini naqadar chuqur egallaganini sinash ham sohibqiron nazaridan chetda qolmaganini uning quyidagi fikrlarida ko‘rish mumkin: **“Kimning aqli va shijoatini sinov tarozisida tortib ko‘rib, boshqalarnikidan ortiqrog‘ini bilsam, uni tarbiyamga olib, amirlik darajasiga ko‘tarar edim, so‘ngra ko‘rsatgan xizmatlariga yarasha martabasini oshirib borardim”**.

Xullas, biz yuqorida ta’kidlaganimizdek, Amir Temurning: **“Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulm-u sitam yo‘lini to‘sdim”** degan so‘zlari, milliy davlatchiligimizning demokratik tamoyillar asosida rivojlanishiga nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Xurshid OCHILOV

(Davomi/Boshi o‘tgan sonda)

“HURRIYAT BERILMAS, OLINUR”

YOXUD MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOV KIM EDI?



Munavvarqori 1913-yildan ish boshlagan “Turon” truppasining tashkilotchilaridan biridir. U do‘stlari Abdulla Avloniy, Ilhomjon Inog‘omov, Komilbek Norbekov, To‘lagan Xo‘jamyorov (Tavallo), Muhammad Poshshaxo‘jayev, Ubaydulla Xo‘jayev, Toshpo‘lat Norbo‘tabekov va boshqalar bilan birga truppaning barcha ishlarida qatnashdi.

1913-yil iyun-iyul oylarida “Turon” truppasi o‘zining norasmiy spektaklini ko‘rsatdi. Truppaning tashkiliy va targ‘ibot ishlariga Munavvarqori faol aralashadi. Xususan, truppaning dastlabki spektakli haqida quyidagicha ma’lumot beradi: “... shahar bog‘ining yozlik teatrusida bir martaba spektakl qo‘yib, olti yuz so‘mga yaqin foyda qildi, buning ustiga ushbu avgustning 8 kuni ramazon munosabati-la Shayx Xovandi Tahur bog‘ida birinchi martaba “Tomosha kechasi” yasadi, ushbu tomosha kechasining daromad va buromadi ushbu tariqa bo‘ldi: sotilgan biletlardan 1387 so‘m 54 tiyin...” Munavvarqori va do‘stlarining shu tariqa “...hech kimning shikoyat va haqoratiga quloq solmay qilgan sa’y va harakatlari...” jamiyatga ham, xalqqa ham “... ma’naviy jihatdan ko‘p foydalar keltirdi”.

Ana shu ma’naviy va madaniy-siyosiy, adabiy-badiiy foyda tufayli yosh taraqqiyparvarlar, jumladan buyuk inson Munavvarqori “Musulmon drama san’ati havaskorlari jamiyati – “Turon”ni chor hukumatiga rasmiy tan oldirishga erishdi. Hukumat truppa ustavi bilan tanishib chiqqach, ruxsat berishga majbur bo‘ldi.

“Turon” truppasi va jamiyatning maqsadi ustavda quyidagi tartibda bayon qilingan:

a) xalq orasida jiddiy va sahna ishiga hamda xayriyaga muhabbat uyg‘otish;

b) xalq uchun spektakl qo‘yib, sog‘lom tomosha ko‘rsatish;

v) Turkiston o‘lkasi hududida yashovchi muhtoj musulmonlarga moddiy yordam berib, ma’naviy va moddiy jihatini yaxshilash”.

Ana shu ezgu maqsadlar oldinga qo‘yilgani uchun ham adib teatr san’atiga muhabbat bilan qaradi va uning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va rolini to‘g‘ri baholay oldi.

1913-yil 27-fevralda Toshkentdagi Kolizey teatri binosida, taniqli tatar rejissyori, o‘zbek spektakllarini sahnalashtirgan san’atkor Zoki Boyazidskiy – Valeyevning so‘zi bilan aytganda, “milliy dramaturgiya, milliy til, milliy artistlar bilan tayyorlangan” o‘zbek milliy teatrining birinchi mavsumi rasmiy ochildi. Spektakl birinchi pardasini ochish Munavvarqori Abdurashidxonovga topshirilgan edi. **U mazkur tantanali marosimda shunday degan edi**: “Turkiston tilida hanuz bir teatr o‘ynalmag‘onlig‘i barchangizga ma’lumdir. Shul sababli ba’zi kishilarimiz teatrg‘a, ehtimolki, o‘yinbozliq yoki masxarabozliq ko‘zlari ila boqurlar. Holbuki, teatrning asl ma’nosi “ibratxona” yoki “ulug‘lar maktabi” degan so‘zdir. Teatr sahnasi har tarafi oynaband qiling‘on bir uyga o‘xshaydurki, unga har kim kirsa o‘zining husn va qabiqini, ayb va nuqsonini ko‘rib, ibrat olur”.

Yoshlikdan islom dini qonun va ko‘rsatmalari bilan oziqlangan, undan ruhlangan kishining teatr san’atiga bunday katta baho berishi ulkan voqea edi. Zero o‘sha yillarda teatr san’atiga yo‘l ochgani uchun xalqimizning sevimli farzandi Mahmudxo‘ja Behbudiy domla Vasliy va boshqalar tomonidan qattiq tanqid qilingan. Munavvarqori aksincha Behbudiyni qo‘llab-quvvatladi, uning sahna asari Toshkentdagi teatrda ko‘rsatilishida jonbozlik ko‘rsatdi. Bu uning dunyoqarashi nihoyatda kengligidan, bilimdonligidan dalolatdir. U o‘zbek tomoshabinlariga: “Biz bu zotlarga va teatrlarga qanday ko‘z ila boqmog‘imiz kerak?” degan savol bilan murojaat qiladi va o‘zi shunday javob beradi: “Muni o‘rganmak uchun biz o‘zimizdan boshqa mutaraqqiy millatlarga boqaylik: misola, ustimizga hokim bo‘lib turgan ruslarga, turklarga, nemislarga, fransuzlarga, yahudiylar va boshqalarga. Ko‘p uzoq ketmaylik, eng yaqin qo‘shnilarimiz bo‘lg‘on totorlarg‘a va Qofqoz musulmonlarig‘a”. Munavvarqori, so‘zsiz, o‘zi shu xalqlarning turmushiga chuqur nazar tashlagandan, ular hayotida teatr san’ati qanday o‘rin tutishini har tomonlama o‘rgangandan keyin shunday fikrni aytgan.

Agar o‘tgan asrning va asrimizning boshlarida Shekspir, Shiller, Gyugo asarlari turk, ozarbayjon tillariga tarjima qilinganini, L. Tolstoy, A. Ostrovskiy va N. Gogolning ayrim asarlari tatarchaga tarjima qilinganini, Munavvarqori esa fors, arab, rus, turk tillarini bilganini hisobga olsak, u bu ulug‘ adiblar asarlarini o‘qiganiga ishonch hosil qilamiz. Bundan tashqari, u taniqli turk adiblari Abdulhaq Homid, Tavfiq Fikrat, ozarbayjon yozuvchilari Mirza Fatxali Oxundov, N. Narimonov, J. Mamatquli-zoda, N. Vazirovning ijodini, tatar faylasuflari Rizoiddin Faxriddinov, Muso Jarulloh Begiyev, Ayoz Is’hoqiy, Ziyoiddin Kamoliy asarlari va ijtimoiy-diniy qarashlarini yaxshi bilgan. Shu bois u o‘zbek tomoshabinlariga Oxundov hayotini ibrat qilib ko‘rsatadi. Oxundov tufayli katta ishlar amalga oshirilganini ta’kidlar ekan, milliy teatrni tashkil etgan **“Najot” jamiyatining san’at “... millatning nomusi va obro‘sini hifz qilur”** degan xulosasiga qo‘shiladi. Shuning uchun millat obro‘sini yuksaltirishni, rivojlantirishni o‘zining umr maqsadi deb bildi. U o‘lkasining qoloqligi sababini axtararkan: “Bizim Turkiston mamlakati tufrog‘, suv va havo jihatidan eng boy mamlakatlardin bo‘la turib, na uchun o‘zimiz bundan foydalana olmaymiz?” deb nola qiladi. “Mana, ket-baket yetgan bunday savollarga javob bermak uchun nodonliq va olamdan xabarsizliq demakdin boshqa chora yo‘qdir. Bu nodonliq va dunyodan xabarsizliq balosidan qutulmak uchun avval oramizda hukm surgan buzuq odatlarning buzuqlig‘ini bilmak va o‘rganmak kerakdir”, deydi u.

U teatr san’atiga “buzuq odatlarning buzuqligini bilmak” va tuzatmak muassasasi, yuqorida aytilganidek, “Tabibi hoziq” deb qaradi va bu yo‘lda katta ishlarni amalga oshirdi. Ana shunday ishlardan biri mahalliy ruhoniylarning teatr sahnasiga qarshiligini sindirish bo‘ldi. Adib xalq bag‘ridagi jaholatni yulib olib tashladi, el yuragida yangi san’at turi bo‘lgan Ovro‘pa tipidagi teatrga muhabbat uyg‘ota oldi. Bu fikrimizga “Turon” truppasining 1914-yildan to 1919-yilgacha faoliyati yorqin dalildir.

MUNAVVARQORI teatr san’ati xususiyatlarini, dramaturgiya talablarini chuqur bilgan olimdir. Shu bois Hamza Hakimzoda Niyoziydek shoir-u adibga ustozlik qila oldi. Buni Hamzaning o‘zi “Qaydlar”ida tan oladi va ular o‘rtasidagi muloqot 1908-yil 11-dekabrda bo‘lganini ta’kidlaydi. Ana shu uchrashuvdan keyin u doimo o‘z piri deb e’tirof etgan ustozi bilan uchrashib turgan va xat yozib, maslahat va yordam so‘ragan. Buni Hamzaning quyidagi xatlari va Munavvarqorining javoblari ham tasdiqlaydi. Masalan, Hamza 1915-yil oktabr-noyabr oylarida quyidagi mazmundagi xat yo‘llaydi:

“Hurmatli Qori afandiya!

Ushbu yubordig‘im kitoblarni tezda adresi zakaznoy banderol ila yubormog‘ingizni rijo qilurman. Mumkin qadar qo‘lyozmaligi po‘chta ma’murlarina ma’lum o‘lmiydirg‘on tarzda o‘ramoq lozim.

Qancha xarajat bo‘lsa, men berurman. Adres: Star. Margelan, chayniy bazar, g-nu. A.X. Zaynullinu. Hamza Hakimzoda maxsus.

Hisoblar nima bo‘ldi? Tamom bo‘lishi uchun qachon yig‘in qilamiz? Shuni ham yozib yuboring!

Hamza Niyoziy”.

Maktubdan sezilib turibdiki, Hamza o‘z piridan asarlarini bostirish masalasida yordam so‘rayapti. Javoblarni ham tez olishni istayapti. Xo‘sh, gap qaysi asar xususida boryapti? Nima uchun qo‘lyozmaligi sir tutilmoqda? Bunga Munavvarqorining quyidagi javobi oydinlik kiritadi.

“Birodari azizim Hamza afandi! Kitoblaringiz bundan bir necha oy muqaddam banim qo‘limga tegmish esa-da, tamoman ko‘rib chiqib, bir fikr bayon etmakka fursat topa olmadig‘imdan maktublaringizga to‘la javob yoza olmag‘on edim.

Hozirda tamom ko‘rib chiqdim. She’rlaringiz ila “Feruzaxonim”ingiz bosilurliq. Faqat fikr islohga muhtoj. Xususan, “Feruzaxonimning mavzusi bik yaxshi: faqat ichindagi “mal’un”, “bedin” kabi adabdan xorij so‘zlar chiqarilsa, eshon ila boyni(ng) bedin va mal’unligini so‘z ila emas, qiliqlari ila ko‘rsatilsa hamda “Choyi qo‘lida, so‘zi bo‘g‘zida qolg‘on Norbobo o‘rnidan turdi-da, do‘konga ketdi” kabi jumlalarni “Norboboning choyi qo‘lida, so‘zi bo‘g‘zida qoldi-da, o‘rnidan turib, do‘konga ketdi” ravishda yozilsa, ochiq va suchukroq bo‘lur edi hamda Mansur ila Feruzaning yozishkon maktublari biroz qisqaroq bo‘lub, suhbatlari biroz uzaytirilsa, muassir chiqardi. She’ringiz-da, yaxshi, faqat “Marhabo” kabi ba’zi she’rlar chiqarilub, o‘rniga kichikroq she’rlar aralashtirilsa, yana yaxshiroq bo‘lur edi. “Turdiqul” ila “Ikki maktub” kitobingiz, menimcha, maqbul ko‘rilmadi. Agarda isloh qilib yuborsangiz, she’r ila “Feruzaxonim”ni “Turkiston kutubxonasi” nashr qilib ko‘radi...

Muhibingiz Munavvarqori. 1915-yil 4-5-noyabr”.

Hamza bu javobga qoniqmay, quyidagi maktubni yuboradi.

“Assalomu alayko‘m! Ma’naviy qori otamiz hazratlarina!

Janobingiza bundan muqaddamgi maktubda yozmish edim: ... agarda o‘z tarafindan “Turkiston kutubxonasi” nashr qilmoq va so‘ngra sahnaya qo‘yulmog‘i jamiyat tarafindan maqbul ko‘rilib, bir vaqtda mavquf qoldirilg‘on bo‘lsa, ayni maqsud o‘lmoq uzra, risolalarni butun qoldirub, ani xususinda vaqtliroq, shitob degil maktub ila qone’ etmaklari mutamannodir.

Hamza Niyoziy” (sanasi yo‘q – S.A.)

Munavvarqori bu maktubga shunday javob beradi:

“Hurmatli Hamza afandi!

... “Feruzaxonim” ila boshqa kitoblaringizni esa ertaga po‘chtadan, inshoolloh, yuborurman. Agarda “Feruzaxonim” man aytqoncha, ya’ni:

1. Eshon va boylarning mal’un va ablahliklarini ochiqdan ochiq “mal’un”, “johil”, “xoin”, “palid”, “nobakor” kabi so‘zlar ila emas, qilg‘on ishlarining yomonlig‘i ila ko‘rsatilsa.

2. Mansur va Feruzalarning maktublari biroz qisqartirilsa, chunki bunday yoshirin maktub qisqa va ma’noli bo‘lur.

3. Bir-birlari ila ko‘rishqondag‘i hollari biroz uzoqroq tasvir qilinsa; chunki ro‘manga ruh kiritadirg‘on va o‘quvchilarni qiziqsinduradurg‘on o‘rinlari shul vasl hollari bo‘lur.

4. Avval tavsiyalar zikr qilinub, so‘ngra sifatlar zikr qilinsa, ya’ni “har bir nazir qilinmish qizlarni yigirma bir yoshig‘a kirgizub, so‘ngra nikohina oluvga odatlangan nobakor Tohir eshon” kabi jumlalar “Ul Tohir eshon har bir nazir qilinmish qizni yigirma bir yoshigacha umrini o‘tkarib, so‘ngra nikohiga olishga odatlangan edi” kabi qisqaroq jumlalarga tahrir qilinsa...

Isloh qilib yuborsangiz, avvalgi shart ila buni ham bostirub nashr etmak niyatidaman...

Boqiy ihvat do‘stingiz Munavvarqori.

1916-yil, 1-yanvar”.

Yana bir maktub.

“...Feruzaxonim”ni hozirda yubormay turingiz, chunki, ehtimol, yaqin fursatda man o‘zim xizmatingizga borib qolsam. Shunda ko‘rishib qaror berurmiz. Hozirda har yerda qog‘oz qahatchiligi hukm surmoqdadir. Binoanalayh hanuz maydong‘a chiqg‘onlarni esa alxusus-alalxusus maktublarda joriy bo‘lg‘on kitoblarni bostirmak mumkin emas. Shu sababli gar qimmat tushsa ham, bosturmakdamiz.

“Milliy ashulalar”ingiz oz va kichkina bo‘lg‘on sababli bostiruldi...

Do‘stingiz Munavvarqori 17-yanvar 1916-yil”.

MUNAVVARQORI VA HAMZANING ushbu yozishmalari ularning nihoyatda do‘st va qadrdon bo‘lganini tasdiqlovchi hujjatdir. Shu bilan birga bu yana quyidagi fikrlarni maydonga olib chiqadi: birinchidan, Munavvarqori Hamzaning tan olgan piri, ma’naviy otasi; ikkinchidan, Munavvarqori “Turkiston kutubxonasi” nashrining muassislaridan biridir; uchinchidan, Hamza o‘z asarlarini bu nashriyotda chop ettirgan va qo‘lyozmalarini faqat “ma’naviy otasi”gagina ishongan; to‘rtinchidan, Hamza qo‘lyozmalari chor hukumati tomonidan doimo ta’qibda bo‘lgan, buni adibning: “mumkin qadar qo‘lyozmaligi po‘chta ma’murlarina ma’lum o‘lmaydirg‘on tarzda o‘ramoq lozim” so‘zi tasdiqlaydi; beshinchidan, Hamza o‘z maktublarini 1915-yil aprel-may va 1915-yil dekabr – 1916-yil aprel oylarida yozgan ko‘rinadi. Buni Munavvarqori maktublari ostidagi sanalar tasdiqlaydi; oltinchidan, Hamza o‘zining pyesasi va yana bir asari xususida fikr yuritmoqda. Uning “sahnaga qo‘yulmog‘i jamiyat tarafindan maqbul ko‘rilib, bir vaqtga mavquf qoldirilgan bo‘lsa...” va “risolalarni butun qoldirib” so‘zlari bunday deyishga asos beradi.

MUNAVVARQORINING javoblari ana shularga oydinlik kiritadi. Maktubdan ma’lum bo‘ladiki, gap asosan Hamzaning “Feruzaxonim”, “Milliy ashulalar”, “Turdiqul”, “Ikki maktub” nomli asarlari *(“kitobingiz” so‘ziga e’tibor bering)* haqida boryapti. Biroq maktubda so‘nggi ikki asarning janri haqida hech gap yo‘q. Ammo “Feruzaxonim” ayrim tadqiqotchilar aytganiday, “Zaharli hayot” dramasining birinchi nusxasi bo‘lmay, nasriy asardir.

Maktublardan yaqqol sezilyaptiki, Munavvarqori to‘g‘ri talablar qo‘ygan va hamisha shogirdining ijodiga xayrixoh bo‘lgan. Bundan tashqari, uning yaxshi uslubchi ekani ham ko‘zga tashlanyapti.

Buyuk inson Munavvarqori Hamza singari qalamkashlarga moddiy va ma’naviy yordam berish bilan cheklanmadi. U xalqimizni istibdod changalidan qutqarish uchun astoydil kirishdi...

MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOV o‘zbek adiblari orasida xalqimizning qoloqligi sabablarini adabiyot yordamida birinchi bo‘lib inkishof etgan siymodir. U o‘z maqola va hikoyalarida xalqimizning bid’atga botgani, ulamolarning tor masalalar bilan o‘ralashib qolgani *(“to‘y va ma’raka xurofoti”, “soch va soqol nizolari”, “uzun va qisqa kiyim janjallari”, “maktabda jug‘rofiya va tabiiyot o‘qitish-o‘qitmaslik ixtiloflari)* va uning oqibatini mutafakkirona ko‘rsatib bergan edi. Zero adib ko‘targan masalalar bugun ham o‘z ahamiyatini zarracha yo‘qotgani yo‘q.

Munavvarqori insonlarni oliy fazilatlarga chorladi. Uning she’r va hikoyalari shunday deyishga asos beradi. U o‘z badiiy ijodini qaysi yillardan boshlagani noma’lum. Ammo uning 1907-yilda bosilgan o‘qish kitobiga qaraganda, dastlabki asarlarini shu yillarda yozgan deb taxmin qilish mumkin.

ADIBNING BIRINCHI HIKOYASI “Sadoyi Turkiston” ro‘znomasida “Kichkina felyeton” ruknida chop etilgan bo‘lib, “Bizda hamiyat” deb ataladi. U negadir “Muharram” taxallusini qo‘ygan. Afsuski, adibning bolalarga bag‘ishlangan uchta hikoya, oltita she’ridan boshqasi saqlanmagan. Sababi GPU jallodlari 1929-yil kech kuzda *(noyabr oyida)* uni hibsga olishganda, barcha qo‘lyozma va bosma asarlari, xatlarini yoqib yuborgan. Shu bois uning badiiy merosi bizgacha yetib kelmagan.

“Bizda hamiyat” hikoyasining qahramonlari ziyolilardir. Ularning ismlari to‘liq qo‘yilmay, harflar bilan belgilangan xolos. Hikoyaning bosh qahramoni muallifning o‘zi. Yo‘lda suhbatlashib turgan ziyolilar oldidan ko‘zi ojiz, yetim bola chiqib qolib, ulardan sadaqa so‘raydi. Ulardan biri achchiq til bilan ishlash, o‘qish kerakligini uqtiradi. Bola ojiz va majolsiz ekanini aytadi. Shunda boyagi ziyolilardan biri o‘zining johilligini fosh etib, jahl bilan: “Ovro‘paliklar ko‘r, quloqsiz, kar va hokazo o‘qimog‘i mumkin bo‘lmagan insonlarga maxsus etib maktablar ochganlar va u maktablardan ko‘r, karlardan o‘qib chiqqan insonlarning had va hisobi yo‘q, san ham shundog‘ maktabda o‘qi”, deydi. Hikoya qahramoni ziyolining nodonligini go‘zal fosh qiladi: “Siz bu so‘zlaringizni qaysi yerda so‘zlayursiz? Berlindami yo Londondami, o‘zingizni zan etarsiz... aqlingiz qayerda?” O‘z qilimishidan mulzam bo‘lgan ziyolining chehrasi burishadi. Do‘stlaridan arazlaydi. Adib qahramoni tilidan gapirib, haqiqiy ziyoli qanday bo‘lishi kerakligi haqida shunday deydi: “Ziyoli millat, Vatan nima ekanini bilur va millat uchun jonini, molini fido etar va millatning taraqqiysi uchun doimo harakat etar. Vaqti kelganda millat uchun o‘zini halokat kartasiga tashlamoqqa muhayyo bo‘lur”. “...Millat, vatan, madaniyat... shunga o‘xshash so‘zlarni bilmak bilan ziyoli bo‘lmaydir”.

Adibning “Tug‘ishganlik sevgisi” hikoyasi ukasini bo‘rilar hujumidan saqlab qolib, o‘zini qurbon qilgan Oyxon ismli qishloq qizi haqida bo‘lsa, “Dev pechak”da esa bugungi ishni ertaga qo‘ymaslik, otalar kasbini e’zozlash to‘g‘risida gap ketadi. Adib har bir asarida bolalarni rostgo‘y, savodli bo‘lishga, hur hayotning qadriga yetishga o‘rgatadi. Shu jihatdan qaraganda, “Qullikka qanday tushdi?” hikoyasi e’tiborga molik.



MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOVNING ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy, pedagogik faoliyatiga oid dalil va hujjatlar bayoni ana shundan iborat. Endi uning qismati va falsafiy qarashlariga oid bir mulohazamizni ham aytib o‘taylik.

Fazilatmaob ko‘p marta ta’qibga uchradi, qamaldi. So‘nggi bor uni 1929-yilning noyabrida hibsga olishdi.

Qo‘yliqda Zulayho buvi Qayumova degan 87 yoshli savodxon kampir yashardi. Bu kampirning otasi Abduqayumxon Oktabr to‘ntarishigacha Peterburgda o‘qib, irrigator-muhandis kasbini egallagan. Yigirmanchi yillarda Toshkent viloyatining ariq oqsoqoli *(bosh irrigatori)* vazifasida ishlab, viloyatda sug‘orish ishlarini rivojlantirish borasida ancha ishlar qilgan. Bu kishi Munavvarqori bilan do‘stona munosabatda bo‘lgan.

Zulayho buvi Munavvarqorining 1929-yilda qamoqqa olinish sabablarini yaxshi eslardi. U bu hodisani shoir Hamza o‘limi bilan bog‘liq ekanini ta’kidlardi. Kampirning fikricha, Hamza o‘limidan keyin O‘rta Osiyoda, xuddi Ittifoqda Kirov o‘limidan keyin yuz berganidek, hodisa yuz bergan ekan. Ya’ni juda ko‘plab kishilar qamoqqa olingan. Kampirning aytishicha, shoir **Hamza Shohimardonda toshbo‘ron qilib emas, pichoqlab o‘ldirilgan ekan. Kommunist ma’murlar esa bu hodisadan ruhoniylar va ulamolarni, xalq orasida obro‘-e’tibori bo‘lgan jadidlarni hibsga olishda foydalanish maqsadida Hamza dindorlar tomonidan toshbo‘ron qilib o‘ldirildi, deb ovoza tarqatgan**. Shu bahona butun O‘rta Osiyodagi jami ko‘zga ko‘ringan ruhoniylar va ulamolar, jadidlar hibsga olingan. Jumladan, Toshkent shahrining o‘zidan 41 nafar ulamo va jadid, shular qatorida Munavvarqori Abdurashidxonov ham hibsga olingan.

– O‘sha kezlari tuhmatchilar mening otamni ham qamatdi, – deb eslaydi Zulayho buvi. – Unga sud hukmi bilan o‘n yil berildi. Otam boshqa ko‘plab mahbuslar qatori Sibirga jo‘natiladigan kunni bir tanishimiz orqali bildik va o‘sha kuni ertalab hozirgi Oloy bozori yaqinidagi shahar qamoqxonasi darvozasi *(ne ajabki, qamoqxona Moskva nomi bilan atalgan – S.A.)* oldiga borib turdik. Bir mahal qamoqxona darvozasi ochilib, mahbuslarni saf-saf qilib olib chiqdilar-da, vokzal tomon haydab ketdilar. Ular orasida otam ham, Munavvarqori ham bor edi. Biz otamning ortidan piyoda shahar yuk-tovar stansiyasigacha bordik. Hozirgi Inqilob xiyobonidan o‘tganda otam borayotgan saf Munavvarqori borayotgan saf bilan tenglashdi. Shunda men qori akaning rang-ro‘yiga razm soldim. Uning yuzidagi ilgarigi tiniqlik, tarovatdan asar ham qolmagandi, so‘lib, oriqlab ketgandi.

Otam qori akaga bosh silkib, unsiz salomlashdilar. U kishi ham xuddi shu yo‘sinda alik oldilar. Bir mahal Munavvarqori:

– Abduqayumxon, sizning gunohingiz nima ekan? – dedilar.

– Tuhmat balosiga uchradim, qori aka, tuhmat balosiga!.. – dedilar otam mahbuslarni qo‘riqlab borayotgan NKVD xodimlariga olazarak qarab.

Toshkent yuk-tovar stansiyasida bir uzun yuk poyezdi turardi. Uning qizil vagonlari salla o‘ragan, qari-qartang mahbuslar bilan to‘la edi. Surishtirsak, bu mahbuslar Hamza o‘limi bahonasida O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida, Tojikiston va Turkmanistonda hibsga olingan ulamo va ruhoniylar ekan. Toshkentlik mahbuslarni ham shu poyezdga joylashtirdilar.

– Otam Sibirning atrofni kecha-yu kunduz nimqorong‘ilik qoplab, tinmay yomg‘ir shivalab urib turadigan olis bir joyida to‘rt yil bo‘lgach, o‘z ishlarining sudda qayta ko‘rilishiga muvaffaq bo‘ldilar va oqlandilar, – deb eslaydi Zulayho buvi. – Ammo sog‘liqlaridan ayrilgan ekanlar. Qodiriya GESi qurilishida biroz vaqt ishlagach, 1934-yilda olamdan o‘tdilar. Munavvarqorini esa ortiq ko‘rmadim.

Munavvarqori Abdurashidxonov 53 yil umr ko‘rdi. Bu umrning o‘ttiz yili haqiqiy kurashda o‘tdi. Buni mardona kurash deyish mumkin. Zero u tatar shoiri Abdulla To‘qayning quyidagi satrlarini takrorlashni yaxshi ko‘rar edi:

Jumla fikrim kecha-kunduz sizga oid, millatim,
Sen salomat, men farog‘at, illatingdur illatim...

Uning qismati shu satrlar bag‘riga singib ketgan. Abadiyati-chi?! Munavvarqori hamon tirik, oramizda yashamoqda, biz bilan hamnafas.

Sirojiddin AHMEDOV

BOBURNI YIG‘LATGAN QOVUN


ANDIJONDAN KELTIRILGANMIDI?

O‘zbek adabiyoti tarixida ko‘p g‘alati mashhur hodisalar bor. Misol uchun, hazrat Navoiy taxallusi “Navoiy” emas, asli “Navoyi” ekani haqida dastlab Hamid Sulaymon, so‘ngra Nusratullo Jumaxo‘ja domla ko‘p yozgan. Shuningdek, “Amir Temir” qachon “Temur”ga, “Bobir” “Bobur”ga aylangani, asli qaysi to‘g‘ri ekaniham puxta o‘rganilishga muhtoj.



Shunday hodisalardan yana biri Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda payti go‘yo Andijondan *(Farg‘onadan)* keltirilgan qovunni yeb, Vatan sog‘inchi ta’sirida yig‘lagani haqidagi gap. O‘tgan asr 80-yillarida o‘quvchilik paytim adabiyot muallimimizdan eshitganman ilk bor. Hatto maktab darsliklariga ham kiritilgan bu haqdagi rivoyat haqiqatan xalq og‘zaki ijodi mahsulimi yoki darslik mualliflari qalamiga mansubmi, bu ham o‘rganilishi zarur. Chunki tili xalq og‘zaki ijodi tiliga mos emas, juda tahrirtalab. Bir misol: **“– Aldagan bo‘lsam, bilganingizni qiling, shohim. Bu qovun “Bog‘i Boburiy”da bitgan, – debdi bog‘bon so‘zidan qaytmay”**. Bog‘bonning shunday jasoratga ega bo‘lishi ishonarli emas.

Hatto taniqli adabiyotshunos Sultonmurod Olim ham, e’tiborsizlik sababmi, bu g‘alati mashhur rivoyatnamo to‘qima gap ta’sirida yozadi: *“Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistonga yurish qilishidan bosh maqsadi ham, kuch to‘plab, qaytib kelib, qo‘ldan boy berilgan Vatanni egallash edi. Vatan – bir butun tushuncha. Lekin yurt sog‘inchini uning lazzatli qovuni-yu uzumi xumori bilan ham ifodalash mumkin: “Bizning ehtimomimiz ul (ya’ni Movarounnahr – S.O.) sorilar bormoqqa behad va beg‘oyattur. Hindiston ishlari ham bir nav’ somon topib keladur. Tengri taolodin umid andoqkim, bu oraning ishi Tengri taolo inoyati bila bot saranjom topqay. Bu ish zabtidin so‘ng betavaqquf, Tengri yetkursa, mutavajjih bo‘lg‘umdur (yuzlanaman, qaytib boraman – S.O.). Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutqay?! Alalxusus, mundoq toyib va torik bo‘lg‘onda qovun va uzumdek mashru’ hazni kishi ne tavr xotirdin chiqarg‘ay?!” (“Sultonmurod Olim ijodi” telegram kanali, 2024-yil 9-aprel).*



“Karvonli” telegram kanalida o‘tkazilgan so‘rovnomada “Bobur mirzo “Boburnoma”da 1528-yil voqealari bayonida “Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutqay... Bu fursatta bir qovun kelturub edilar, kesib yegach, g‘arib ta’sir qildi. Tamom yig‘lab edim...” degan. **Savol: “Qovun qayerdan keltirilgan?” degan savolga 442 o‘quvchi javob bergan: Andijon – 300, Samarqand – 86, Kobul – 56. Endi “Boburnoma”dan ayni hodisa keltirilgan o‘rinni o‘qiymiz**:

“Yana ba’zi kayfiyat Xoja Kalong‘a bitilgan xattin ma’lum bo‘lur uchun o‘shal xatning savodini betafovut bitildi: Xoja Kalong‘a salom degach, so‘z ulkim, Shamsiddin Muhammad Ita’vag‘a keldi. Kayfiyatlar ma’lum bo‘ldi. Bizning ehtimomimiz ul sarilar bormoqqa behad va beg‘oyattur. Hindiston ishlari ham bir nav’ somon topib keladur. Tengri taolodin umid andoqdurkim, bu oraning ishi Tengri taolo inoyati bila bot saranjom topg‘ay. Bu ish zabtidin so‘ng betavaqquf, Tengri yetkursa, mutavajjih bo‘lg‘umdur. Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutqay?! Alalxusus mundoq toyib va torik bo‘lg‘anda qovun va uzumdek mashru’ hazni kishi ne tavr xotirdin chiqarg‘ay?! Bu fursatta bir qovun kelturub edilar, kesib yegach, g‘arib ta’sir qildi. Tamom yig‘lab edim. Kobulning nomarbutlug‘ini bitilib edi, ul bobta andisha qilib, oxir xotir munga qaror toptikim, yetti-sakkiz hokim bir viloyatta bo‘lsa, ne tavr marbut va mazbut bo‘lg‘usidur. Bu vajhdin egachimni va haramlarni Hindustong‘a tiladim. Jami’ Kobul viloyati va quroyotini xolisa qildim. Humoyung‘a va Komrong‘a ham bu mazmunni mashruh bitidim”.

Shamsiddin Muhammad – Xoja Kalonning navkari Ita’vaga Bobur podshoh huzuriga kelgani bayoni Xoja Kalonga bitilgan xatdan sal oldin bayon etilgan: ***“Kemada edimki, Sulton Muhammad baxshi Xoja Kalonning navkari Shamsiddin Muhammadni olib keldi. Xatlaridin va taqriridin Kobuldag‘i kayfiyat va holat mushaxxas va ma’lum bo‘ldi”***.

Bobur mirzo Hindistonni 1526-yili fath etgan. Ikki yildan buyon bu yerda saltanat taxtini mustahkamlash ishlari bilan band edi. Kobuldek xushhavo joylardan “xeyli issiq” Hindistonga taqdir taqozosi bilan kelgan “xeyli el bodi samumning ta’siridin har zamonda yiqilib-yiqilib, o‘la kirishtilar. Bu jihatlardin aksar beklar va o‘bdon-o‘bdon yigitlar ko‘ngul solib edilar. Hindustonda turmoqqa rozi emas edilar, balki ketarga yuz qo‘yub edilar”. Ana shunday vaziyatda “Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutqay?” deganda Bobur podshoh Kobulni nazarda tutgan. Hindiston tabiati, hayvonot va nabotot olami, geografiyasi va h.k. masalalarni yoritayotganda ham “bizning viloyatlarg‘a”, “Kobulg‘a”, “bizning viloyatning”, “Ul viloyatlarda”, “ul yerlarning”, “Kobul toshi bila”, “Kobulning yarim seri”, deya Kobul bilan solishtirgan. Mana bu o‘rinda ham “vatandin” deganda Kobul nazarda tutilgan: “Cherik eli ba’zi xeyli mutaraddid va mutavahhim edilar. Taraddud va tavahhum betaqribdur. Nekim azalda Tengri taqdir qilibtur, ondin o‘zga bo‘lmas. Agarchi alarni ham ayb qilib bo‘lmas, haq alar jonibi edi. Ne uchunkim, vatandin ikki-uch oychaliq yo‘l kelilib edi. G‘arib qavme bila elning ishi tushub edi. Ne biz alarning tillarini bilur edik, ne alar bizning tilimizni”.

Xullas, qovun voqeasi Hindiston fath etilganiga 2 yil, Kobul egallanganiga 25 yil bo‘lganida ro‘y bermoqda. “Bizning ehtimomimiz ul sarilar bormoqqa behad va beg‘oyattur” gapida “ul sarilar” deganda Kobul nazarda tutilmoqda, Movarounnahr yoki Farg‘ona *(Andijon)* emas. **Bobur mirzoning Kobulga mehri bo‘lakcha ekanining bir sababi Humoyunga bitgan maktubida bayon etilgan:**

“Yana muncha fath va zafarlar Kobulda ekanda bo‘ldi, Kobulni shugun tutubturmen, ani xolisa qildim. Hech qaysingiz ta’ma qilmag‘aysiz”.

Endi qovun voqeasiga Andijon *(Farg‘ona)*, Movarounnahr qanday bog‘lanib qolgani masalasiga kelsak, bu savolning aniq javobi topilmadi. Hatto Sultonmurod Olimdek zukko adabiyotshunos olim ham bu to‘qima, g‘alati mashhur qarash ta’siriga tushib qolganini inobatga olsak, buning ildizi chuqurga o‘xshaydi. Zahiriddin Muhammad Boburni zo‘r berib “andijoniylashtirish”ga urinish hodisasi bilan bog‘liqdir, balki.

Bobur hech qachon Andijon yo Samarqand yoki Kobul bilangina chegaralanib qoladigan hukmdor bo‘lmagan. O‘z ta’biri bilan aytganda, “dag‘dag‘a”si, iddaosi juda baland bo‘lgan: **“Chun hamisha Hinduston olmoq xotirda edi, bu bir necha viloyatlarkim, Bhira va Xushob va Chanob va Chanut bo‘lg‘ay, necha mahal turk tasarrufida edi, bularni xud mulkimizdek tasavvur qilur eduk”**. Ya’ni bir paytlar ulug‘ bobosi Temurbek tasarrufida bo‘lgan hududlarni qayta egallash niyati hamisha bo‘lgan. Jumladan, Movarounnahrni ham. Demak, Andijon, Samarqand, Kobul, Hirot, Dehli hududlari, Bobur so‘zlari bilan aytganda, “Temurbekning yurti” edi.

Xullas, keltirilgan qovun Andijon yo Kobuldan bo‘lsin, “Temurbekning yurti”dan edi. Xulosa shulki, asli ajdodi Shahrisabzdan bo‘lgan, Andijonda tug‘ilgan, Samarqand taxtiga intilgan, Kobulda kuchli davlat tuzgan, Hindistonni fath etgan buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur birgina viloyat bilan bog‘lab, “mahalliylashtirish”dan juda yuksak turadigan betakror Shaxsdir.

Husan KARVONLI,
jurnalist

Chegara qo‘shinlarida

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari harbiy qism va bo‘linmalari tomonidan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni yurtga sadoqat, milliy qadriyat va an’analarga hurmat ruhida kamol topishlariga erishish maqsadida ko‘plab ma’naviy tadbirlar, davra suhbatlari, uch avlod uchrashuvlari hamda turli ko‘rik-tanlov va musobaqalar tashkil etilmoqda.



YURT DEYA YONSIN YURAKLAR







Xususan, Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi chegaraoldi hududda joylashgan 14-umumta’lim maktabida ham DXX Chegara qo‘shinlari faxriylari iste’fodagi podpolkovniklar – S. Choriyev, A. Sa’dullayev va B. Murodov ishtirokida davra suhbati bo‘lib o‘tdi.

“Najot ta’lim, tarbiya, bilimda” mavzusida o‘tkazilgan suhbat davomida mamlakatimizning bugungi rivojlanish bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlar, ro‘y berayotgan o‘zgarish va yangilanishlar xususida so‘z yuritilib, so‘nggi yillarda yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi va o‘z iqtidorini namoyon eta olishi uchun yaratib berilayotgan shart-sharoit hamda qulayliklar, shuningdek Qurolli Kuchlarimizni zamonaviy qurol-aslaha, harbiy texnika va jihozlar bilan ta’minlash, harbiy xizmatchilar hamda ular oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan ishlar xususida to‘xtalib o‘tildi.

Tadbir davomida ishtirokchilar Termiz shahridagi “Yosh chegarachilar” harbiy akademik litseyi faoliyati va bu yerda o‘quvchilarning sifatli ta’lim olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar to‘g‘risida ham ma’lumotlarga ega bo‘ldi.

Davra suhbati yakunida faxriylar maktabda tashkil etilgan chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani xonasini ko‘zdan kechirib, qo‘shimcha jihozlar bilan ta’minlash bo‘yicha o‘z taklif va mulohazalarini bildirib o‘tdi. Maktab hovlisida harbiylar tomonidan xizmat itlari yordamida namoyish etilgan ko‘rgazmali chiqishlar ham ertamiz egalarida katta taassurot qoldirdi.

* * *

Shu kabi uchrashuv Buxoro viloyatida joylashgan bo‘linmalarning birida harbiy xizmatchilar, DXX Chegara qo‘shinlari faxriylari, 50-umumta’lim maktabi o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazildi. Katta hayot tajribasiga ega bo‘lgan faxriylarning voqeiy hikoyalari, xalqimizning bugungi tinch va osoyishta hayotini ta’minlash, Vatan oldidagi burchini ado etish chog‘ida halok bo‘lgan qahramon chegarachilar haqida berilgan ma’lumotlar hech kimni befarq qoldirmadi. Namoyish etilgan harbiy texnikalar, qurol-aslahalar ko‘rgazmasi, shuningdek xizmat hayvonlari ishtirokidagi chiqishlar o‘quvchi-yoshlar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.







– Yoshlarni harbiy kasbga yo‘naltirish, ularning ong-u tafakkuriga Vatan himoyasi sharafli burch ekanini singdirish va bugun har jihatdan rivojlanib borayotgan milliy armiyamiz bilan faxrlanish tuyg‘ularini shakllantirishda bunday tadbirlarning o‘rni beqiyos. Biz ana shunday ezgu ishlarning ishtirokchisi bo‘layotganimizdan nihoyatda mamnunmiz. Chunki yoshidan qat’i nazar, insonning yuragi yurt deya yonsa, u hamisha tinchlikni asrashga astoydil bel bog‘laydi, – deydi DXX Chegara qo‘shinlari faxriysi Shuhrat Shoboyev.

* * *

Kelajagimiz bunyodkorlari ishtirokidagi tadbirlardan yana biri Xorazm viloyatida joylashgan bo‘linmalardan biri tomonidan tashkil etildi. Ochiq eshiklar kuni sifatida o‘tkazilgan tadbir davomida chegarani qo‘riqlash bo‘linmasida mehmon bo‘lgan yoshlar bu yerda yurt himoyachilari hamda ularning oila a’zolari uchun yaratilgan shart-sharoit va qulayliklar, jangovar-xizmat faoliyatini olib borishda sarhadlarimiz posbonlari tomonidan foydalaniladigan qurol-aslaha va harbiy texnikalar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘ldi.

* * *

Yoshlar ishtirokida o‘tkazilayotgan tadbirlar doirasida Andijon va Farg‘ona viloyatidagi bo‘linmalarda xizmat qilayotgan chegarachilarning farzandlari o‘rtasida “Jajji musavvir” nomli rasm chizish tanlovi ham tashkil etildi. Unda ishtirokchilar belgilangan vaqt davomida o‘zlari tanlagan erkin mavzuda rasm chizishlari va ijodiy ishlarini hay’at a’zolariga ta’riflab berishlari talab etildi. Mitti qo‘lchalari bilan qalam tutgan bolajonlar qisqa fursatlarda ona Vatan, go‘zal tabiat, baxtiyor oila, rang-barang gullar ifodalangan rasmlarni mahorat bilan chizib, o‘z tasavvurlaridan kelib chiqqan holda ularni birma-bir ta’riflab berdi.

Yakunda eng yaxshi deb topilgan ijodiy ishlar sohiblari maxsus diplom va sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo‘shinlari



> Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgandan keyin 100 dan ortiq jangda g‘alaba qozongan. Bu g‘alabalarning ortida harb ilmini puxta egallagan, shijoatli, azmi qat’iy, dushman to‘plarini sindiruvchi, taslim bo‘lish nimaligini bilmagan, qo‘rqmas va shiddatkor lashkarboshilar va minglarcha askarlar turadi.

QO‘MONDON IKI TEMUR TARIXI

XO‘JA SAYFIDDIN, Amir Joku, Amir Iki Temur, Iskandar, Olim shayx Qavchin, Qimoriy Inoq, Sori Bug‘o, Muhammad Sultonshoh, Usmon Bahodir, Shayx Nuriddin bek, Sulaymon shoh, Xudoydod, Berdibek, Shamsuddin Abbos, Amir Shohmalik, Shoh Malik, Menglixo‘ja, G‘iyosiddin Tarxon, Amir Shayx Arslon, Sevinchak bahodir, Temur Xoja Oqbug‘a va boshqa lashkarboshilar Amir Temur olib borgan yurish va janglarda urush taqdirini hal qilganlar, katta-katta shahar va qal’alarni egallashda jasorat va harbiy san’atini namoyon etgan.

IKI TEMUR 10 000 qo‘shinga sardor bo‘lgan. Unga katta muhr, tug‘, nog‘ora va bayroq berilgan. O‘sha paytda tuman boshlig‘i lavozimiga janglarda katta namuna ko‘rsatgan, dushman to‘plarini sindirgan kishilargina munosib ko‘rilgan. Harbiylar xizmatlariga ko‘ra amal pog‘onasidan ko‘tarilib borgan. Iki Temur Amir Temurning ishongan va nom qozongan lashkarboshisi bo‘lgan va unga eng katta yurishlar, dushman sirlaridan ogoh bo‘lish, qorovul qo‘shinlariga bosh bo‘lish, tavochilikdan tortib amal pog‘onasining cho‘qqisiga erishgan, davlatda vazir va amir maslahatchisi darajasiga ko‘tarilgan.

IKI TEMURNING janglardagi faoliyatini kuzatar ekanmiz, u eng avvalgi saflarda, qo‘shindan ancha oldinga o‘tgan holda janglar olib borganini ko‘ramiz. U qal’a devorlariga epchillik bilan tez fursatda chiqqan. Goh uni tashkilotchi, goh qal’a devori ostini kovlaydigan naqibchi, goh rahbar, goh asl sarkarda sifatida bilish mumkin. U, afsuski, 1391-yilda To‘xtamishxon bilan bo‘lgan katta urushdan oldingi qorovul qo‘shinlari o‘rtasida bo‘lgan jangda halok bo‘lgan. U o‘sha paytda oldida atigi 7-8 navkari bilan jang qilgan va ozchilik bo‘lishiga va yaralanganiga qaramasdan, dushman kuchini sindira olgan va shu yerda jon taslim qilgan.

Aslida, Iki Temur Vatan sharafi uchun kurashgan. U Movarounnahrga tinmay yurishlar qilib kelgan, davlat xavfsizligini tahlikaga solgan, Amir Temurning yordami bilan Oltin O‘rda taxtiga o‘tirib olgan, o‘z hukmdori va Vataniga fursat topib tinmay yurish qilgan To‘xtamishxonga qarshi kurashgan.

TARIX SAHIFALARIDA Hirot yaqinidagi Po‘shang mavzesining zabt etilishida ilk bora Iki Temur eslatib o‘tilgan. Hisor ahli Amir Temur qo‘shiniga qattiq qarshilik ko‘rsatgan. Qal’a atrofi xandaq bilan o‘ralgandi. Amir Temur: “Har kim o‘z qarshisidagi yerdan Hisorga ko‘tarilsin!” degan amri farmon bergan. Amir Ali, Iki Temur, Abbos o‘g‘li Umar, Amir Mubashshir qattiq harakat qilib devorga yetib oldi va u yerdan o‘q yomg‘iri va toshlarning yog‘ilishiga qaramay, chekinmasdan qal’a devoriga tirmashib chiqadi. Va qal’a darvozasini ochib, u yerni zabt etadilar. Albatta, bu ishlarni bittagina Amir Temur qila olmasdi. Uning shon-shavkatini ta’minlab bergan lashkarboshilar bo‘lib, ularning har birini alohida o‘rganish bu davr g‘alaba omillari va usullarini anglab yetishimizda bizga yordam beradi.

Hirotni zabt etishda ham Iki Temur, Mubashshir va Sunchak sidqidildan hamlaga o‘tib, sultonlarga xos jang olib borgan, qal’adan dushman askarlari toshlar irg‘itayotganda va o‘qlar yomg‘iri yog‘dirganda ham boshlari va yelkalaridan yaralansalar ham, jangni to‘xtatmaydilar. Darvoza eshigini sindirib, qal’a hisoriga kirib borganlar. Ikki ming kishini tiriklayin tutib asir oladilar va Amir Temurning oldiga olib keladilar. Amir Temur ularni afv etadi.

Kalot qal’asini olishda ham Iki Temurning jasorati tarix sahifalarida alohida qayd etilgan. Harbiy yurishda nog‘ora va burg‘u chalinib, qal’ani zabt etish boshlangan. Nog‘ora va burg‘u chalinishi bilan sarkardalar va ularning ko‘rsatgan yo‘lidan askarlar o‘zlariga belgilangan hududlarda yurishlarni olib boravergan. Iki Temur mana shu jangda ham hammadan oldin tog‘ga ko‘tarilib, qarshisidan chiqqan dushmanga nayza urgan, o‘qlarni vizillatib yog‘dirgan. Bu qal’ani olishda Mubashshir va Umar ham katta matonat ko‘rsatgan. Umar bir necha navkar bilan ilgari ketganda unga dushman hamla qilgan va Amir Temurning ularga yordam uchun dadil va botir otliqlarni yuborgan. Ular dushmanga hamla qilib, joyidan qalqitgan. Bu shiddat va qayta-qayta hamlalarning zarbiga chidolmagan dushmanlar mag‘lub bo‘ladi hamda jang maydoni va qal’ani tashlab qochadi.

Seyistonda qal’alardan birini zabt etishda Iki Temur boshqa amir va askarlar bilan yaralangan. Iki Temur Amir Valiga qarshi kurashda ham jasorat ko‘rsatgan. U qochgandan keyin ortidan quvib, uni zabun ahvolga solgan.

IKI TEMUR Alanjiq qal’asini olishda ham faol ishtirok etgan. Hoji Sayfiddin va Iki Temur qo‘shinlari qal’ani o‘rab olib, tagidan naqb kovlay boshlagan va ularni yengib, hokimini bog‘lab, Amir Temur oldiga olib kelganlar.

Iki Temur Isfahonda Tabrak qal’asiga kiradi, xalqiga omonlik beradi va moli omon solig‘i olishni buyuradi. Amirzoda Temur Malik va Sultonshoh o‘g‘li u molni to‘plash uchun shaharga keladi. Kech kirgach, bir jamoat Amir Temurning muhosillari va o‘z ishlari bilan yurgan askarlarini o‘ldiradi. Avboshlarning o‘zlari Isfahondan qochib ketadi. Natijada Isfahon ahlidan qattiq o‘ch olinadi.

Iki Temur Xorazm yurishlarida ham ishtirok etgan. To‘xtamishxonga qarshi kurashda tashkiliy masalalarni hal qilgan. Qo‘shinni jamlagan, kerak joylarda ko‘priklar solgan, Amir Temurning hamma amr-farmonlarini o‘z vaqtida bajargan. Jangning old qismida va eng og‘ir sharoitlarda jang qilgan, ko‘pincha chapdastligi, tezkorligi, jasurligi sababli qal’alarga suron solib birinchi kirib borgan.

1391-YILGI JANG oldidan dushman haqidagi hamma xabarlarni yig‘ish uchun bir jamoa botirlar bilan dushman tomonga borib, suv va loyli yo‘llardan o‘tib, dushman qorovul qo‘shinining tog‘ ustida nazorat qilib turganlarini ko‘rdi. Dushman ularni ko‘rib, shoshilib tepadan pastga tushadi. Iki Temur esa tepaga chiqib, ularning joyini egallab oladi. O‘sha paytda Iki Temurning o‘ttiz chog‘li askari bor edi. Ko‘pchiligini Amir Temurga xabar berishga yuborib, o‘zi 7-8 chog‘li askari bilan qolgandi. Dushmanlar shu paytda unga hujumni boshlaydi. Iki Temur oz sonli askarlari bilan hech ikkilanmasdan va qo‘rqmasdan mardlik va g‘ayrat maqomida turib, ularga hamla qildi. O‘qlarni vizillatib otib, qo‘shinni o‘z oldiga siljitmay turdi. Kamoli mardonaligidan kishilari suvdan o‘tib olguncha to‘xtab turdi. Shu o‘rtada uning otiga o‘q tegdi. Ot tura olmagani sababli undan tushdi va navkari o‘z otini unga tutdi. Yana bir o‘q ikkinchi otga ham tegdi va u ham halok bo‘ldi. Dushmanlar Iki Temurni o‘rtaga oldi. U shu vaziyatda ham joni chiqquniga qadar qattiq jang qildi va mana shu yerda qazo qildi.

Nizomiddin Shomiy dushman tomon uni tanimagani, taniganda uni o‘ldirishga shoshilmasligini ta’kidlab, uning taqdiriga achinib, o‘z tarixlarini yozgan.

Shu holatda Amir Temur va amir Sayfiddin voqea joyiga yetib keladi. Shomiyning aytishicha, ular “Bu hodisadan g‘amga botib, tafakkur va hayrat ichida qoldilar”.

Umuman olganda, Amir Temurning safdoshi, uning buyruq-amrlarini so‘zsiz bajargan, g‘alabalarni ta’minlagan Iki Temurga o‘xshagan lashkarboshilar tarixi va ularning hayoti alohida o‘rganilishi va xalqimizga yetkazilishi kerak. Harbiylar ham ularning shiddati, vatanparvarligi, harbiy san’ati, Vatanga sadoqati va boshqa fazilatlarini yaxshilab o‘rganishi kerak. Iki Temur tarixi yurt himoyasi uchun qilich ko‘targan epik qahramon tarixidir.

Shohista O‘LJAYEVA,
tarix fanlari doktori, professor

Ajdodlar jasorati – yoshlarga ibrat

JANGGOHDAGI XOTIRALAR

O‘ZBEK JANGCHISINING OKOPDAGI HAYOTI

1939–1945-yillardagi jahon urushining boshlanishi, uning sabablari va aybdorlari haqida ko‘p yozilgan. Bu mudhish urush jahon tarixida misli ko‘rilmagan darajada katta va dahshatli, butun insoniyat boshiga og‘ir kulfatlarni solgan urush bo‘ldi. Bugungi kunda hech kimga sir emaski, buyuk tarixiy g‘alabaga boshqa xalqlar qatori o‘zbek xalqi ham juda katta hissa qo‘shgani Vatanimiz tarixiga zarhal harflar bilan yozilgan. Urushda O‘zbekistondan 1,5 million kishi janglarda bevosita ishtirok etgan, qanchadan qancha yurtdoshlarimiz urushda halok bo‘lgan, qanchasi bedarak ketgan, qanchasi mayib-majruh bo‘lib qaytgan. Shunday jangchilardan biri Mirzaxonov urush davridagi xotiralarini shunday eslaydi.



Jang tindi. Guruh okopda yig‘ildi. Agitator o‘zbek Mirzaxonov bir askarga zatvorni tozalashda yordam berar va u bilan o‘z ona tilida suhbatlashar edi. Tezda boshqa o‘zbek va qozoq askarlar ham ularning atrofiga to‘plandi.

O‘tkazilgan jang haqida so‘z ochildi. Mirzaxonov okopning bir burchagida o‘tirgan askarga murojaat qilib:

– Sen nima uchun biz belgilangan chekka yeta olmadik, deb achchig‘lanasan? – dedi.

– Esingda bormi, “Atakaga!” degan signal bo‘yicha leytenant Kopilov okopdan turib: “Men bilan olg‘a!” deb qichqirganda sen hamda boshqa ba’zi bir askarlar darrov atakaga ko‘tarilmadinglar. Shuning natijasida qimmatli fursat qo‘ldan ketdi. Biz olg‘a siljishdan ilgari dushman bizni sezib qoldi va bizga qarab o‘t ochdi. Bizning asta-sekinlik bilan qimirlashimiz tufayli leytenant halok bo‘ldi.

Agitator bir daqiqa to‘xtab, yana so‘zida davom etdi:

– Leytenantning qoni bizning bo‘ynimizda...

Askarlar o‘ylanib qoldi.

– Nima qilish kerak edi? – deb so‘radi Mirzaxonov va o‘zi javob berdi: – Tez ko‘tarilib, olg‘a chopib borish kerak edi. Shunda jangovar vazifa bajarilgan bo‘lar edi, endi yanada chekni shturm qilib olishga to‘g‘ri keladi. Axir bizga hech kim bu chekni dushmandan urib olib bermaydi. Biz buyruqni qanday bo‘lmasin, bajarishimiz kerak. Bir qancha o‘rtoqlarimiz qurbon ham bo‘ldi...

Mirzaxonov yarador va halok bo‘lgan o‘rtoqlarini sanab o‘tdi.

Agitatorning so‘zi qoyil qoladigan va ta’sirli edi. U yana so‘zini davom ettirdi:

– Minomyot o‘ti ostidagi zonadan o‘tishda ham biz no‘noqlik qildik. Ko‘pchilik tartibsiz ravishda yugurdi. Bunday qilish yaramaydi. Agar minalar sizdan ilgarida tusha boshlasa, darrov yotib oling, minomyot o‘ti to‘xtashini kuting. Agarda minalar sizning orqangizga yoki orangizga tusha boshlasa, tez intilib olg‘a yuguring. Biz yana okop qazishni yaxshi o‘rganib olishimiz lozim.

Agitator yotgan holda qanday qilib kurakni ishlatish usulini ko‘rsatib berdi.

Suhbat askarlarda kuchli ta’sir qoldirdi. Ular yana ancha vaqt uxlamay o‘tirdi. Hammaning miyasini jangda qurbon bo‘lgan komandir va boshqa o‘rtoqlarining xunini fashistlardan olish xayoli band qilgandi.

JANGDAGI “OV”DAN TARIXIY XOTIRALAR

Jangchilardan yana biri mergan Rayimjon Sultonov urush davridagi xotiralarini shunday eslaydi.

Snayperchi askar Rayimjon Sultonov gospitaldan qaytib keldi. Kelishi bilanoq o‘z komandiridan tezda “ov”ga yuborishini so‘radi.

– Shoshma, yana uch-to‘rt kun dam ol, so‘ngra chiqaverasan “ov”ga, – dedi komandir.

– Biror soat ham bekor o‘tirgim kelmayapti. To‘rt marta yarador bo‘lganman, o‘sha to‘kilgan qonim uchun dushmandan qasos olgim keladi, – deb talabidan qaytmadi Rayimjon.

Rayimjon “ov”ga chiqadigan bo‘ldi. Katta leytenant Bondarenko, “ov”ga ikki kishi bo‘lib chiqasizlar, deb unga sherik berdi.

Sherigi qiz bola edi. Rayimjon “Bu nimayam qilar edi jangda” deb ichida xafa bo‘ldi.

Sultonov urush boshlanganidan buyon jang maydonida yurar, ammo haligacha bironta snayper qizni ko‘rmagan edi. To‘g‘ri, frontda qizlar ko‘p, Rayimjon ko‘rgan qizlar hammasi hamshira yoki aloqachi bo‘lib ishlar edi. Hozir ro‘parasida turgan optikali miltiqli snayper qizni ko‘rganda ancha qizarib qoldi...



Qiz ismini aytdi-da, “Tanishib qo‘yaylik!” deb Rayimjonga qo‘lini uzatdi. Bu qiz rotaga yangi kelgan Raya ismli qiz edi.

Raya o‘rta bo‘yli, semizgina, oq yuz, qora sochli edi. U avval rotaga kelganda komandir va jangchilar ham “Bu yoshgina qiz baribir jang mushkulliklariga bardosh berolmaydi” deb o‘ylagan edi. Ammo Raya chidamli, pishiq, epchil ekanini isbotladi. Uzoq og‘ir yurishlarda, qattiq janglarda erkaklardan qolishmadi, snayperlik hunarini puxta o‘rgandi. Raya quvnoq, gapga chechan qiz, ko‘p hazillashavergan yigitlarga qarab:

– Nima ko‘p? Yigitlar ko‘p... O‘zingni ko‘rsatma, amaliy ishingni, mardligingni ko‘rsat menga! – der edi.

Ba’zi bir jangchilarni otib nishonga tegdira olmaysan-u, yana qizlarni poylaysan, deb masxara ham qilib qo‘yar edi.

Rayimjon sherigi qiz bo‘lganidanmi, ko‘ngli to‘lmadi, “ov”da yo‘lim bo‘lmaydi, deb ham gumonlandi.

Rayimjonning bu fikrini bilib olgandek:

– Jo‘jani kuzda sanaydilar, – deb rus xalqi maqolini gapirib iljayib qo‘ydi Raya.

O‘sha kun “ov”ga chiqqanida Rayimjon uch fashistni otib o‘ldirdi. Raya quruq qaytdi. Ammo ancha vaqt o‘tgach, Rayimjon Raya haqidagi fikrlari noto‘g‘ri ekanini angladi. Qiz bola bo‘lsa ham, hech qaysi yigitdan bo‘sh kelmasligini isbot qildi.

Rayimjon kabi Raya ham dushmanga nafratli edi. Uning jonajon Belarussiyadagi ota-onasi va og‘a-inilariga fashistlar ko‘p azob-uqubatlarni ko‘rsatgan, o‘ldirgan, tirik qolganlarni esa Germaniyaga qullikka haydab ketgan edi. Shuning uchun ham Rayadagi dushmanga bo‘lgan nafrat juda kuchli edi.

Ikki merganning “ov”dan quruq qaytgan kuni bo‘lmadi. Nishonga olingan fashistni qayta yubormadilar. Ikkovlarining ham shaxsiy daftariga yozilgan qasos olish hisobi kun sayin o‘sa bordi.

1945-yilning bahor chog‘i Rayimjon hamda Raya otish pozitsiyasida yotganida 20 dan ortiq fashist itvachchalari qarshi atakaga o‘tdi. Ikki mergan shoshmasdan granatalarini sozlab, jangga tayyorlandi. Fashistlar yaqin kelganida ikki mergan toshbo‘ron qilib, o‘t ochdi. Ular juda mohirona niqoblangan edi. Bu joydan o‘q otilishini kutmagan fashistlar shoshib qoldi.

Jang yarim soatlarcha davom etdi. Raya va Rayimjon goh granatalarni irg‘itib, goh o‘t ochib, to ortlaridan yordamchi kuch yetib kelgunigacha fashistlarni olg‘a qadam bostirmadi. O‘sha jangda Rayimjon 12, Raya esa 9 fashistni jahannamga jo‘natdi.

– Ana shu jangda ikkalamiz ham yarador bo‘ldik. Raya qahramonlarcha kurashdi. Gospitalga ketishim bilan men uni qaytib ko‘rolmadim. Sheryurak, ajoyib qiz edi, – deb eslab qo‘yadi Rayimjon.

Bundan bir yil avval Rayimjon G‘arbiy Dvina daryosi bo‘ylarida jang qildi. Bo‘linma hujumga o‘tganda o‘z guruhini hammadan burun olg‘a boshlab borib, mardlarcha fashist transheyasiga bostirib kirdi va butun bo‘linmaning g‘alaba qozonishini ta’min etdi. Rayimjon yana to‘rtta fashistni o‘ldirdi.

Kelgusi kuni Rayimjon Sultonov desantchilar safida jang qildi. Tank dushman ichkarisiga kirib ketdi. Desantchilar esa chaqqon harakat qilib, fashist batareyasini yo‘q qildilar. Jang tobora qizidi va kuchaydi. Desantchilar komandiri safdan chiqdi. Rayimjon tashabbus ko‘rsatdi. U komandirlikni o‘z zimmasiga olib, jangchilarni olg‘a boshladi. Jangchilarimiz gitlerchilarni qirib tashladi.

Cho‘zilib o‘lib, yotgan ko‘kimtir ablahlarni ko‘rganda Rayimjonning qasosli dili orom olar va shodlanar edi. Ammo u “Dushman uzil-kesil tor-mor bo‘lmaguncha, mening qasos olish hisobim tamom bo‘lmayajak” der edi.

Sharqiy Prussiyada so‘nggi urushlarda Rayimjon yana katta mahorat ko‘rsatdi, u yana o‘nlarcha fashistni qirib tashladi. Qahramonning ko‘ksini “Qizil yulduz”, “Shuhrat” ordenlari va “Jasurligi uchun” medali bezadi.

Muqaddas tuprog‘imiz dushmandan tamomila tozalandi. Berlin ustiga g‘alaba bayrog‘i tikildi.

Podpolkovnik
Zarif MAXAMADIYEV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
sikl boshlig‘i





JAHON CHEMPIONATI:

Harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi dunyo birinchiligi bahslarining o‘tgan davriga nazar tashlanadigan bo‘lsa, yurtimizda bo‘lib o‘tgan musobaqa anchayin qizg‘in va murosasiz bahslarga boy bo‘ldi. Fikrimizning isboti sifatida ayrim misollarni keltirib o‘tsak. Harbiylar o‘rtasidagi 40-jahon chempionati 2021-yili Fransiyaning Parij shahrida bo‘lib o‘tgandi. Unda 20 ta davlatdan 175 nafar sportchi o‘zlarini yana bir bor dzyudo bo‘yicha sinovdan o‘tkazdi. *(Vakillarimizdan Diyora Keldiyorova ham o‘sha chempionatda 52 kg vazn toifasida oltin medalni qo‘lga kiritganidan xabaringiz bo‘lsa kerak.)*












Foto: Asror RO'ZIBOYEV, Bahrom ABDURAHIMOV, Sherzod EGAMBERDIYEV

SHIDDATLI, SHIJOATLI VA SHARAFLI



Shu tariqa O‘zbekiston terma jamoasi harbiylar o‘rtasidagi 42-jahon chempionatini 5 ta oltin, 5 ta kumush va 3 ta bronza medal bilan yakunladi.

Oltin medal:

-52 kg: Gulhayo Jo‘rayeva;
-73 kg: Shahram Ahadov;
-81 kg: Hikmatilloh To‘rayev;
-100 kg: Rustam Shorahmatov;
+100 kg: Shohrux Baxtiyorov.

Kumush medal:

-48 kg: Halimajon Qurbonova;
-63 kg: Nigina Saparbayeva;
-66 kg: Abdurahim Nutfullayev;
-81 kg: Muso Sobirov;
+78 kg: Irisxon Qurbonboyeva.

Bronza medal:

-48 kg: Laziza Haydarova;
-57 kg: Nilufar Ermaganbetova;
-60 kg: Bahrom Boturov.

Jamoaviy bahslarda O‘zbekiston ayollar jamoasi 1-o‘rinni, erkaklar jamoasi esa 2-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Yakuniy natijalar quyidagicha:

Ayollar o‘rtasida:

O‘zbekiston jamoasi – 1-o‘rin;
Fransiya jamoasi – 2-o‘rin;
Italiya va Mo‘g‘uliston jamoalari – 3-o‘rin.

Erkaklar o‘rtasida:

Mo‘g‘uliston jamoasi – 1-o‘rin;
O‘zbekiston jamoasi – 2-o‘rin;
Eron va Qozog‘iston jamoalari – 3-o‘rin.

Medallar to‘plami bo‘yicha:

O‘zbekiston jamoasi – 1-o‘rin;
Fransiya jamoasi – 2-o‘rin;
Mo‘g‘uliston jamoasi – 3-o‘rin.

2023-yil bo‘lib o‘tgan 41-harbiylar o‘rtasidagi jahon chempionatiga Dominikan Respublikasi Santo Domingo shahri mezbonlik qilgan. Unda 16 ta davlatdan 134 nafar sportchi birinchilik uchun tatamiga tushgandi. Harbiylar o‘rtasidagi 42-jahon chempionatiga mezbonlik qilgan yurtimizga tashrif buyurgan mehmon davlatlar soni 30 ta bo‘lib, unda 400 nafarga yaqin harbiy sportchi g‘oliblik uchun kurash olib bordi. Mana shu misolning o‘ziyoq Toshkentda bo‘lib o‘tgan chempionatga qiziqish yuqori bo‘lganidan dalolat.

– Xalqaro harbiy sport kengashi vakillari yaratilgan shart-sharoitlarni ko‘zdan kechirdi. Shundan so‘ng ular tomonidan dzyudo bo‘yicha jahon chempionatining yurtimizda o‘tkazilishi bo‘yicha qaror qabul qilindi, – deydi podpolkovnik Sherzod Rasulov. – Ushbu chempionatni yuqori saviyada o‘tkazish uchun jahon tajribasini o‘rgandik. Kichik bo‘lsa ham, xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilindi. Tashrif buyurgan sportchilar avvalo, yurtimiz mehmoni ekani ham, nazardan chetda qolmadi. Ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishlari uchun Toshkent shahrining diqqatga sazovor joylariga sayohat uyushtirildi.

Kuchsiz sportchilar xalqaro musobaqagacha yetib kelmaydi, albatta. Tabiiyki, tatamidagi janglar ham shunga loyiq bo‘ldi. Kurashda jarohat olganlar, natijasidan qoniqmaganlar, hakamga e’tiroz bildirgan murabbiylar va mag‘lubiyatni tan olib, g‘olibni e’tirof etgan sportchilar ham bo‘ldi. Asosiysi, chempionatni Xalqaro dzyudo federatsiyasi hakamlaridan iborat hay’at a’zolari boshqarib borgani musobaqaning shaffof va xolis o‘tishini ta’minladi.

– Yurtimizda ilk marotaba bo‘lib o‘tgan jahon chempionatida ishtirok etganimdan xursandman. Saralash bahslari, chorak final hamda yarim finalgacha yetib kelishning o‘ziga yarasha mashaqqatlari bo‘ldi. Har bir sportchi g‘alaba qozonish uchun tatamiga chiqishini inobatga olsak, bu tabiiy hol, – deydi Gulhayo Jo‘rayeva. – Finalda esa ancha kuchli bo‘lgan mongoliyalik raqibimga qarshi tatamiga tushdim. Tayyorgarlik jarayonlarida “Oltin medalni qo‘lga kiritaman hamda baland ko‘tarilgan bayrog‘imizga qarab madhiyamizni kuylayman”, deya maqsad qilgandim. Ming shukrki, yuzim yorug‘ bo‘ldi. Chempionatning oltin medalini qo‘lga kiritdim.

Sherzod SHARIPOV,
“Vatanparvar”

Respirator kasalliklar profilaktikasi



> Dunyoning ko‘pgina mamlakatlari qatorida respublikamizda ham kuz mavsumidan boshlab gripp va o‘tkir respirator infeksiyalar bilan kasallanish darajasining navbatdagi ko‘tarilishi kuzatiladi. Harbiy xizmatchilarning gripp va o‘tkir respirator infeksiyalar bilan kasallanish ko‘rsatkichlari mahalliy aholi orasidagi epidemik vaziyat bilan chambarchas bog‘liq.

Qo‘shinlarda amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirlarga qaramasdan, shaxsiy tarkib orasida o‘tkir respirator infeksiyalar bilan kasallanish darajasi boshqa yuqumli kasalliklar orasida dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, barcha yuqumli va yuqumli bo‘lmagan kasallanishlarni jamlaganda o‘tkir respirator infeksiyalar bilan kasallanish ko‘rsatkichi ulardan yuqori ekanligi aniqlangan.

O‘tkir respirator kasalliklar gripp kasalligi bilan klinik jihatdan o‘xshash bo‘lganligi sababli aholi orasida “shamollash yoki tumov” deb yuritiladi. O‘tkir respirator kasalliklarning qo‘zg‘atuvchisi viruslar hisoblansada, bu kasalliklarni bakteriya va boshqa mikroorganizmlar ham chaqirishi mumkin. Klinik jihatdan o‘xshashliklari va qo‘zg‘atuvchilarning asosiy joylashgan joyi nafas yo‘llari ekanligiga asoslanib, gripp, mikoplazmoz, virusli infeksiyalar, bakterial infeksiyalar bir guruhga kiritilgan.

O‘tkir respirator kasalliklarga mavsumiylik xosdir. Kasallanish oktabr oyining oxiri va noyabr oyiga kelib ko‘tariladi. Yuqori ko‘tarilish yanvar oyining oxiri, fevral oyining boshlariga to‘g‘ri keladi. Kasallik keltirib chiqaruvchi omillarga ko‘p hollarda tananing sovuq qotishi, bemor bilan muloqotda bo‘lish va immun tizimi faolligining pasayishi sabab bo‘ladi.

Kasallikning o‘tkir boshlanishi, uning odatda, qisqa muddat davom etishi, kataral o‘zgarishlar *(yo‘tal, tomoq qizarishi, ko‘z qizarishi)*, tana haroratining ko‘tarilishi va intoksikatsiya *(tananing mikroblar ta’sirida zaharlanishi)* bu o‘tkir respirator infeksiyalarning asosiy xususiyatlaridir.

Kasallik manbai bemor odam hisoblanadi va u yo‘talganda, aksirganda kasallik chaqiruvchi virus, nafas yo‘li ajralmalari bilan tashqi muhitga chiqadi. Kasallik sog‘ odamga havo-tomchi yo‘li orqali yuqadi va uning belgilari paydo bo‘lgunga qadar bo‘lgan vaqt bir necha soatdan 1-2 kungacha davom etadi. Kasallik yuqqandan so‘ng bemorda badan uvishishi, umumiy darmonsizlik, bo‘g‘inlarning zirqirab og‘rishi, tana haroratining ko‘tarilishi, yo‘tal va tumov belgilari paydo bo‘ladi. Ayrim bemorlarda kasallik belgilarsiz kechishi mumkin. Bunday bemorlar atrofdagilar uchun xavfli hisoblanib, grippning tez tarqalishiga va ko‘plab kishilarning kasallanishiga sabab bo‘ladi. Inson organizmining kasallikka qarshi kurashish xususiyati uning yoshi, jismoniy chiniqqanligi, turmush tarzi va vaqtida ovqatlanishi bilan bog‘liq. Asoratsiz o‘tgan gripp va boshqa o‘tkir respirator kasalliklar davolash muolajalari yordamida 3-6 kun davom etadi. Vaqtida davolanmagan bemorlarda esa gripp kasalligidan keyin o‘pka, yurak qon-tomir va asab tizimi faoliyatining buzilishi kabi asoratlar yuzaga kelishi mumkin.

Shuni ta’kidlash lozimki, gripp va boshqa o‘tkir respirator kasalliklar bilan og‘riganda antibiotiklar kasallikni davolash uchun samara bermaydi, uni kasallik keltirib chiqargan asoratlarni davolash uchun qo‘llash mumkin. Ko‘proq bemorga choy, na’matak qaynatmasi va har xil meva sharbatlarini ichirish, xonani tez-tez shamollatish kasallikdan qutulishga yordam beradi.

Hozirgi kunda gripp va boshqa o‘tkir respirator kasalliklar bilan kurashishda hali sezilarli muvaffaqiyatga erishilgani yo‘q. Bemorni boshqalardan alohidalashning o‘zi epidemiyaga qarshi chora sifatida o‘zini oqlamayapti. Bunga sabab bemorlarning kech murojaat qilishi, yana bir sababi kasallikni “oyoqda” o‘tkazadigan bemorlarning ko‘pligidir. Kasallik uyushgan jamoalarda tez tarqalish xususiyatiga ega, chunki sovuq kunlarda yopiq binolarda o‘tkaziladigan darslar, majlislar va boshqa ommaviy tadbirlar vaqtida bemorlar infeksiyaning havo-tomchi orqali tarqalishiga sabab bo‘ladi.

Kasallanishning oldini olishga barchamiz mas’ul bo‘lishimiz lozim. Buning uchun ushbu kasallik haqida ma’lumotga ega bo‘lish, gripp bo‘yicha epidemik vaziyat noxush bo‘lgan davlatlarga safarlarni vaqtincha cheklash maslahat beriladi. Kasallik alomatlari paydo bo‘lganda uni boshqalarga yuqtirmaslik uchun yo‘talganda va aksirganda og‘iz va burunni ro‘molcha bilan berkitish, jamoat joylarida doka niqobdan foydalanish, zudlik bilan shifokorga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir.

Qish mavsumida yashash va xizmat xonalarida mo‘tadil issiqlikni ta’minlash, xonalarni tez-tez shamollatib turish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, doimiy badantarbiya bilan shug‘ullanish, mavsumga mos kiyinish, tarkibida vitamin va oqsillarga boy bo‘lgan mahsulotlarni iste’mol qilish, piyoz, sarimsoq, sitrus mevalar, na’matak mevalaridan tayyorlangan damlamalar iste’mol qilish, o‘z vaqtida uxlash, ishni to‘g‘ri tashkil qilish organizmning himoya kuchini oshiradi.

Barcha profilaktik chora-tadbirlar bilan birgalikda mavsum oldidan grippga qarshi vaksina yordamida emlash yaxshi natija beradi. Emlash natijasida kasallanish darajasi bir necha barobarga kamayishi, emlanganlar orasida kasallik birmuncha yengil o‘tishi kuzatilgan. Hozirgi kunda qo‘llanilayotgan grippga qarshi vaksina ko‘p yillardan buyon Qurolli Kuchlarda sinovdan o‘tgan bo‘lib, yuqori immunogenlik xususiyatiga ega ekanligi va kam asoratliligi tasdiqlangan.

Tibbiy xizmat mayori
E. BEKKAMOV,
B. AXMEDOV,
Mudofaa vazirligi
Sanitariya-epidemiologiya
nazorati markazi
vrach-mutaxassislari

Musobaqa

Eng yaxshi sportchilar



Qashqadaryo viloyatida O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti tomonidan sportning duatlon turi bo‘yicha O‘zbekiston kubogi o‘tkazildi.

Musobaqada Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardan tashrif buyurgan 100 dan ortiq sportchi turli yosh toifalarida g‘oliblik uchun bahs olib bordi.

Sportchilar musobaqa shartlariga ko‘ra, belgilangan masofalarda velopoyga va yugurish bo‘yicha o‘zaro bellashdi.

Murosasiz va qizg‘in kechgan kubok musobaqasi quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

2009–2012-yillarda tug‘ilgan o‘g‘il bolalar o‘rtasida:
1-o‘rin: Abilayxan Orinbasarov *(Qoraqalpog‘iston R.);*
2-o‘rin: Azizullo Abdulhodiyev *(Andijon v.);*
3- o‘rin: Suhrobjon Haydaraliyev *(Andijon v.).*

2009–2012-yillarda tug‘ilgan qizlar o‘rtasida:
1-o‘rin: Ziyoda Abalova *(Toshkent v.);*
2-o‘rin: Lalaxon Ozodova *(Qoraqalpog‘iston R.);*
3-o‘rin: Janiya Abdujabborova *(Toshkent v.).*

19 va undan katta yoshli erkaklar o‘rtasida:
1-o‘rin: Ruslan Karnilov *(Toshkent sh.);*
2-o‘rin: Muhammadyusuf Abduxalilov *(Andijon v.);*
3- o‘rin: Roman Bektemirov *(Toshkent sh.).*

19 va undan katta yoshli ayollar o‘rtasida:
1-o‘rin: Diana Bektemirova *(Toshkent sh.);*
2-o‘rin: Oydina Ikromova *(Namangan v.);*
3-o‘rin: Shahrizabonu Abdusalomova *(Toshkent v.).*

2006–2008-yillarda tug‘ilgan o‘g‘il bolalar o‘rtasida:
1-o‘rin: Suhrob Rajabov *(Buxoro v.);*
2-o‘rin: G‘iyos Shukrullayev *(Qoraqalpog‘iston R.);*
3-o‘rin: Shahob Abduqayumov *(Toshkent v.).*

2006–2008-yillarda tug‘ilgan qizlar o‘rtasida:
1-o‘rin: Dayana Lukiyenko *(Toshkent sh.);*
2-o‘rin: Aziza Zayniddinova *(Buxoro v.);*
3-o‘rin: Laura Beshiyeva *(Toshkent v.).*

Jamoa hisobida:
1-o‘rin: Toshkent viloyati;
2-o‘rin: Buxoro viloyati;
3-o‘rin: Toshkent shahri.

G‘olib va sovrindorlar “Vatanparvar” tashkiloti tomonidan diplom va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Mohir poygachilar saralandi



Toshkent viloyatining Piskent tumanidagi “Janubiy” avtopoligonida O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti tomonidan avtomobil halqa poygalari bo‘yicha O‘zbekiston chempionatining ikkinchi bosqich musobaqalari o‘tkazildi.

Chempionatda respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan 40 nafar sportchi o‘zaro bellashdi.

Poygachi sportchilar chempionatning “A-8” sinfida dvigatelning ish hajmi 1 100 sm³dan 1 600 sm³gacha bo‘lgan, “A-9” sinfida dvigatelning ish hajmi 1 601 sm³dan 2 000 sm³gacha bo‘lgan va milliy sinfda dvigatelning ish hajmi 1 600 sm³gacha bo‘lgan sport avtomobillarida harakatlandi.

Murosasiz va qizg‘in kechgan bellashuv quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

“A-8” sinfida:
1-o‘rin: Farrux Muratov *(Toshkent sh.);*
2-o‘rin: Mirsohib Adilov *(Toshkent sh.);*
3-o‘rin: Oybek Hamroyev *(Toshkent sh.).*

“A-9” sinfida:
1-o‘rin: Farrux Urunov *(Toshkent sh.);*
2-o‘rin: Islom Gilyaziddinov *(Toshkent sh.);*
3-o‘rin: Aziz Tolibnazarov *(Toshkent sh.).*

Milliy sinfda:
1-o‘rin: Sanjar Nabiyev *(Jizzax v.);*
2-o‘rin: Jasur Ergashev *(Toshkent v.);*
3-o‘rin: Sanjar Boboqulov *(Toshkent sh.).*

Umumjamoa hisobida:
1-o‘rin: Toshkent shahri;
2-o‘rin: Toshkent viloyati;
3-o‘rin: Jizzax viloyati.

Musobaqalar yakunida g‘oliblar va yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritgan sportchilar “Vatanparvar” tashkilotining faxriy yorliq, esdalik sovg‘alari hamda homiylar tomonidan ajratilgan qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Musobaqaning uchinchi, ya’ni yakuniy bosqichi joriy yilning 10-noyabr kuni o‘tkaziladi va har uchala bosqich natijalaridan kelib chiqib, O‘zbekiston chempionlari aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti matbuot xizmati

Armiya prokurori

O‘rganishlar davom etmoqda

Urganch harbiy prokuraturasi tomonidan harbiy qismlarning birida o‘rganishlar olib borildi.

Jarayonda mavjud sharoitlar, hududda amalga oshirilayotgan qurilish-ta’mirlash ishlari va faoliyatga doir boshqa masalalarga e’tibor qaratildi.

Shuningdek, kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik, elektr va gaz tarmoqlarining mavsumga shayligi hamda energiya tejamkorlikni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar o‘rganildi.

Yakunda o‘rganishlar natijalari muhokama qilinib, mas’ullarga tegishli ko‘rsatmalar berildi. Shu bilan birga, shaxsiy tarkib bilan muloqot o‘tkazildi.

Milliy gvardiya Xorazm viloyati bo‘yicha boshqarmasida esa profilaktik tadbir o‘tkazilib, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun mohiyati, bu boradagi jinoyatlar va ular uchun belgilangan javobgarlik masalalari haqida so‘z yuritildi.

Bundan tashqari, o‘quvchilar ishtirokida o‘tkazib kelinayotgan “Prokurorlik soati” tadbirlari davom ettirilib, Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyda “Yoshlar kelajagimiz” mavzusida uchrashuv tashkil etildi.

Adliya podpolkovnigi
Umid NIZAMOV,
Urganch harbiy prokurori

Seminar

Fikr-mulohazalar almashildi

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi mahkamasi va Termiz harbiy prokuraturasi xodimlari tomonidan viloyat milliy gvardiya organlarining tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslari ishtirokida o‘quv seminari o‘tkazildi.

Unda tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish tartib-taomili, Jinoyat-protsessual kodeksi va sohaga doir boshqa me’yoriy hujjatlar talablari yuzasidan fikr-mulohazalar almashildi.

Shuningdek, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi tadbirlar davom ettirilib, harbiy qismlarning birida yoshlar ishtirokida ochiq eshiklar kuni o‘tkazildi.

Unda Vatanga muhabbat va sadoqat, harbiy xizmat nufuzi, Qurolli Kuchlardagi islohotlar va umummilliy qadriyatlarimiz, buyuk ajdodlarimiz va ma’rifatparvar jadidlarimiz ma’naviy merosi haqida so‘z bordi.

Bundan tashqari, Muzrabot tumanining Shaffof mahallasi yoshlari o‘rtasida shashka va shaxmat musobaqalari tashkil etilib, g‘oliblar munosib taqdirlandi.

Qarshi harbiy sudi hamkorligida harbiy qismlarning birida tashkil etilgan ochiq muloqotda esa yo‘l-transport hodisalarining ayanchli oqibatlari haqida so‘z bordi.

Adliya polkovnigi
Sherzod MIRZAYEV,
Termiz harbiy prokurori

Mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotlarida

REKLAMA REKLAMA REKLAMA

Ayollar bekati



Abraziv tozalash vositalari

Yangi ta’mirlangan uyda turli bo‘yoqlardan qolgan dog‘lar, oshxonadagi gaz plitasi, turli buyumlar yoki dudburondagi yog‘li qotishmalar, yuvinish xonasidagi ko‘nglingizni xira qiladigan chirklarni ba’zida oddiy tozalash vositalari yordamida ketkazib bo‘lmaydi. Bunday hollarda sirtni kirlanishdan tozalash uchun maxsus vositalardan foydalangan ma’qul. Bugun bunday vositalar haqida ma’lumot berishga harakat qilamiz.

Abraziv tozalash vositalari nima?

Abraziv tozalash vositalari sirtga sepilganda kirni eritib yuboradi. Bu vosita qattiq zarralarni o‘z ichiga olgan tozalovchi tarkibga ega va uning turlari mavjud. Ular tabiiy minerallar, sintetik materiallar yoki metall zarralaridan iborat bo‘ladi. Abraziv tozalash vositalari odatda kukun, gel yoki suyuqlik shaklida bo‘ladi. Ular turli sirtlarni tozalashga mo‘ljallangan: pech, gaz plitasi, yuvinish xonasi jihozlari va har xil dog‘li qotishmalar.

Quruq kukunli vositalar mineral yoki sintetik abrazivlarning kimyoviy reagentlar bilan aralashmasidan iborat eng oddiy va arzon yuvish vositasidir. Odatda, ularni ishlatishdan oldin suv bilan suyultiriladi yoki nam yuzaga ishlatiladi. Bunday vositalarning eng oddiysi iste’mol sodasidir. Undan oshxona jihozlarini tozalashda foydalanish xavfsiz va samarali hisoblanadi.

Gel va pastalar suv, ko‘p miqdorda abraziv hamda kimyoviy moddalarni o‘z ichiga oladi. Ular kuchli tozalash ta’siriga ega. Shuningdek, o‘tkir yoki yoqimli hidga, turli rangga ega bo‘ladi.

Suyuq vositalar asosan metall bo‘lmagan, shisha yoki nozik sirtli yuzalarda ishlatiladi. Shuningdek, ular antibakterial xususiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Ulardan to‘g‘ri foydalanish

Abraziv tozalash vositalari dog‘larga qarshi kurashda samarali va qulay hisoblanadi. Ammo ulardan foydalanganda ma’lum qoidalar va ehtiyot choralarga rioya qilish talab etiladi. Bunday yuvish vositalarini ishlatishdan oldin tozalamoqchi bo‘lgan sirtga to‘g‘ri kelishini tekshirib ko‘ring. Chunki ba’zi vositalar buyum yuzasini tirnashi, xiralashtirishi yoki unga zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun oz miqdordagi vositani buyumning ko‘zga ko‘rinmas joyida sinab ko‘ring, hech qanday iz qoldirmasligiga ishonch hosil qiling.


Tozalash vositasini ishlatishdan oldin qadoqda berilgan ko‘rsatmalarga amal qiling.

Abraziv tozalash vositalaridan tashqari, abraziv tozalash buyumlari ham bor. Ular oddiy yuvish vositalari bilan yoki alohida o‘zi ham ishlatiladi. Bularga gubka, mato, cho‘tka boshqa qirib tozalovchi vositalar kiradi. Ular tayyorlangan material turiga ko‘ra har xil bo‘ladi.

Gubka va qirg‘ichli tozalash vositasi universal hisoblanib, juda keng tarqalgan. Asosan idishlarni, oshxona buyumlarini va mebellar yuzasini tozalashda ishlatiladi. Ular o‘ziga suv yoki tozalash vositalarini shimib olib, oson tozalashda yordam beradi.

Cho‘tka va qirg‘ichli tozalash vositalari qattiq kirlangan yuzalar, zang, qotishmalarni tozalash uchun mo‘ljallangan. Ular asosan metall sim, plastmassa, yog‘och yoki boshqa o‘tkir tig‘li materiallardan tayyorlanadi. Bunday vositalardan foydalanganda ehtiyotkorlik talab qilinadi.

Umuman olganda, barcha tozalash vositalaridan foydalanganda rezina qo‘lqop kiygan holda tozalagan ma’qul, chunki undagi kimyoviy moddalar qo‘l terisiga jiddiy ziyon yetkazishi mumkin.



Pazanda

Tvorogning foydasi



Tvorog organizmni quvvatlantiradigan uglevodlarni o‘z ichiga oladi. Unda temir, kalsiy, fosfor, boshqa muhim vitamin va minerallar mavjud. Tvorog ichak faoliyatini yaxshilaydi, uning tarkibidagi vitaminlar asab, yurak qon-tomir tizimini, skeletni mustahkamlaydi va organizmning immunitet himoyasini oshiradi.

Ovqatlanish ratsioniga qarab, tvorogni tanlagan ma’qul. Agar maqsadingiz vazn yo‘qotish bo‘lsa, unda yog‘siz tvorogni tanlashingiz lozim. Siz mushak massasini oshirayotgan yoki biror-bir kasallikdan tuzalayotgan bo‘lsangiz, yog‘ miqdori yuqori bo‘lgan tvorogni iste’mol qiling! Har bir turdagi tvorogning kamchiliklari bor, biroq to‘g‘ri ovqatlanish sizga ko‘proq foyda olishga yordam beradi.

Tvorog solingan lavashli pirog



Kerakli masalliqlar:
400 g tvorog,
200 g pishloq, 3 dona tuxum, 3 osh qoshiq smetana,
250 ml kefir, 3-4 dona lavash, ko‘kat, tuz va ziravorlar.

Tayyorlanishi: qirg‘ichdan o‘tkazilgan pishloq tvorog bilan aralashtiriladi. Pishloqning bir qismini qoldirib, ko‘katlar ham to‘g‘rab olinadi. Tvorogli aralashmaga ko‘katlar solinib, masalliqlar yaxshilab aralashtiriladi. Agar pishloq sho‘r bo‘lsa, tuz solish shart emas. Keyin tuxum, smetana va kefir aralashtiriladi. Lavash xamiri ta’bga ko‘ra 3-4 qavat bo‘lishi kerak. Qolipga dastlab tuxumli aralashma quyiladi, so‘ngra lavash xamiri qo‘yilib, ustidan tvorogli masalliq solinadi. Har bir qatlam, shu tarzda tayyorlanadi va pirogning eng yuqori qismiga qirg‘ichdan o‘tkazilgan pishloq solinadi. 180 daraja haroratda 30 daqiqa davomida pechda pishirib olinadi.

Yoqimli ishtaha!

Sahifani Sayyora MIRZAYEVA tayyorladi.


So‘z qachon keskir bo‘ladi?



Inson o‘z fikrini atrofdagilarga tushunarli tarzda yetkaza olishi adabiy til me’yorlariga qat’iy rioya qilish orqali amalga oshiriladi va bu orqali tilning ravonligi, jozibadorligi namoyon bo‘ladi. Nutqda chet so‘zlar va shevadan foydalanish o‘z-o‘zidan adabiy tilning rivojlanishiga to‘sqinlik qilib, asrlar davomida shakllanib kelgan har qanday tilning asta-sekinlik bilan muomaladan chiqib ketishiga sabab bo‘ladi.

Mustaqilligimiz arafasida, 1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishini tilimiz tarixidagi muhim yutuqlardan biri sifatida ko‘rsata olamiz. Har yili ushbu kun oldidan o‘zbek tili va unga e’tibor berishga doir turli maqolalar, ko‘rsatuvlar tayyorlash va tadbirlar, yig‘ilishlar o‘tkazish an’anaga aylangan. Aynan mana shunday harakatlar qanchalik o‘zini oqlayapti? Tayyorlanayotgan maqolalar va ko‘rsatuvlar, o‘tkazilayotgan tadbirlar hamda yig‘ilishlar xo‘jako‘rsinga bo‘lib qolmayaptimi?

Insonning barcha xatti-harakati uning ichki olami – qalbi bilan bog‘liq. Tilni asrash ham avvalo, uning ichki olamida paydo bo‘lishi va qaror topishi kerak. Har bir kishidan o‘z ona tilini sevish, uni ardoqlash tuyg‘usi bo‘lishi talab etiladi. Chunki tilimiz asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan ardoqlanib, ko‘z qorachig‘idek asrab kelingan. Shuning uchun milliy qadriyatlarimizni ifoda etib beruvchi tilimizdan g‘ururlanishimiz, uning tarixiy an’analarini davom ettirishimiz zarur. Bu borada ko‘zlangan maqsadlarga erishish uchun yosh avlod vakillariga maktabdanoq o‘zbek tilining jozibasi, boyligi, go‘zalligi va imkoniyatlarini misollar bilan tushuntirib, o‘z tilini yaxshi bilish har bir inson uchun sharaf va obro‘ keltirishini uqtirish lozim.



Hozirgi paytda xalqimiz orasida “Biror chet tilni bilsang, yaxshi-yaxshi joylarda ishlashing mumkin” degan tushuncha keng ildiz otgan. Chet tillarni bilish yaxshi. Ammo bu narsa o‘z ona tilini mukammal bilgan holda amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. O‘zbek adabiy tilini puxta bilish har qanday soha va kasb egasiga faqat va faqat yutuqlar olib kelishi ulug‘ allomalar, ajdodlarimiz misolida yoritib berilsa, foydadan xoli bo‘lmasdi.

Ayrim hollarda shevalarimiz o‘zaro muloqot tili sifatida foydalanilayotgani achinarli. Bunaqa faollikka chek qo‘yilmasa, ularning “mustaqil til” bo‘lish ehtimoli katta. Ayniqsa, bu faollik televideniye hamda radio yo‘nalishida ham borligi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Saviyasi bir tiyinga qimmat seriallarni aytmasa ham bo‘ladi. O‘zini ziyoli qatlam vakillari deb sanaydigan san’atkorlar, aktyorlar, boshlovchilar, o‘zidan soxta poytaxtlik yasab olgan hamyurtlarimizni ko‘rib, ensangiz qotmasdan qolmaydi. Bu kabi achinarli holatlar ijtimoiy tarmoqlarda ham keng quloch yozgan. Ayrim insonlarning suhbatlarini eshitib, yig‘lashni ham, kulishni ham bilmay qolasiz. Ba’zi oliy ta’lim muassasalari va poytaxt maktablaridagi o‘zaro muloqotda ham o‘zidan poytaxtlik yasab olish odat tusiga aylanib borayotgani achinarli.

2-oktabr kuni O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan Facebook tarmog‘ida bir hamyurtimiz tomonidan qo‘yilgan tabrik matniga qarang: *“Bugu ozbe tli dovlat tli db elon kilingan kun yekan, shu munosabat bilan barchelani tabrikliyma, ozbek tlimizaga sodik bolib kolila, rvojlantrishga oz xisselani qo‘shsela xursan bolamiz”*. Naqadar ayanchli holat. Matn shevada yozilgani yetmagandek, g‘ij-g‘ij xatoga to‘la. Birinchi sinf o‘quvchisi ham bu qadar xato yozmasa kerak. Nima qilish kerak? Ijtimoiy tarmoqlardagi bu kabi yozishmalar va aholi o‘rtasidagi savodsizlikni keltirib chiqarayotgan uchta muhim omilga asosiy e’tibor qaratish zarur.

Birinchidan, TV, radio va seriallarda adabiy til me’yorlariga qat’iy rioya qilishni yo‘lga qo‘yish. Ikkinchidan, mamlakatimizning barcha hududlarida – ko‘cha, savdo do‘konlari, reklama peshtaxtalaridagi xatolarga qarshi jarima solish orqali kurashni boshlashning ayni vaqti. Uchinchidan, O‘zbekistonda foydalaniladigan kompyuter, telefon hamda smartfonlar uchun faqat adabiy tilda matnlarni to‘g‘ri yozadigan dastur yaratish lozim. Misol uchun, biror so‘z xato yozilgan holatda keyingisini yozishning imkoni bo‘lmasligi, o‘sha xato yozilgan so‘zning to‘g‘ri yozilish variantini esa ekranda ko‘rsatib beruvchi dastur.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi ma’naviyat va ma’rifat markazi, vazirliklar, bosma ommaviy axborot nashrlari ozmi-ko‘pmi o‘zbek adabiy tili me’yorlariga rioya qilgan holda faoliyat ko‘rsatayotgani ko‘zni quvontiradi. Bunday holatni milliy armiyamizda ham kuzatish mumkin. Vatan himoyachilari “O‘zbekiston Respublikasiga sadoqat bilan xizmat qilaman!”, “Posboniman muqaddas yurtning!”, “Vatanni qo‘riqlash muqaddas burch!”, “O‘zbekiston buyuk!”, “O‘zbekiston jonim!” kabi har qanday insonning badanini jimirlatadigan jumlalarni shevada aytmaydi. Xatolar bilan yozmaydi. Chunki harbiy qismlar va muassasalar, dala-o‘quv maydonlarida o‘rnatilgan tariximiz, ma’naviyatimiz hamda madaniyatimizga aloqador ibratli bannerlar adabiy til me’yorlariga xos yozilgan.

Ko‘rgan ko‘z o‘rganadi, eshitganda anglab yetiladi, deganlaridek boshqa sohalarda ham tilimizdagi muammoli nuqtalarni o‘z vaqtida bartaraf etish vaqti keldi. Ana o‘shanda o‘zbek tilining yana uzoq asrlar davomidagi jozibadorligini saqlab qolishda barchamiz o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

Asror RO‘ZIBOYEV

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot

SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI
www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-91
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo‘lim: 55 511-25-90

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova
Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo‘ziyeva
Musahhih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-5841
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 941 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O‘zbekiston” NMIU mas’ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
www.mv–vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz
mudofaavazirligi
mudofaavazirligi
www.youtube.com/c/UzArmiya